

№13-16
(1550)
2026-YIL
18-IYUL

O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH

ЗДРАВООХРАНЕНИЕ
УЗБЕКИСТАНА



IJTIMOY –SIYOSIY GAZETA ♦ 1995 –YIL OKTABR OYIDAN CHIQA BOSHLAGAN

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
ҚАРОРИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ПРЕКУРСОРЛАРНИНГ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФАОЛИЯТНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ВА УЗЛУКСИЗ НАЗОРАТНИ ТАЪМИНЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотлар доирасида гиёҳвандлик ва наркотиқларнинг олдини олиш ва уларга қарши курашиш соҳасида мустахкам ҳуқуқий асослар яратилмоқда. Шу билан бирга, сўнгги йилларда республикада уюшган наркотиқсозлик гуруҳлар томонидан яширин нарколабораториялар ташкил этилиб, турли прекурсорлар ва кимёвий моддалардан фойдаланган ҳолда, янги турдаги синтетик наркотикларни ишлаб чиқариш кузатишмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркотиқсозликлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида» 2025 йил 3 ноябрдаги ПФ-207-сон Фармони ижросини таъминлаш, шунингдек, прекурсорларнинг ноқонуний муомаласига қатъий чек қўйиш, уларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни замон талаблари асосида тартибга солиш ва узлуксиз давлат назоратини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркотиқсозликлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида» 2025 йил 3 ноябрдаги ПФ-207-сон Фармони билан:

прекурсорларнинг муомаласини тартибга солиш ҳамда уларнинг ишлаб чиқарилишидан (олиб кирилишидан) бошлаб реализация қилинишигача бўлган барча жараёнларни электрон назорат қилиш тизимини йўлга қўйишни назарда тутувчи қатъий давлат назоратини ўрнатиш назарда тутилган;

республикада муомаласи чекланган прекурсорлар рўйхатини халқаро тажрибадан келиб чиққан ҳолда кенгайтириш чораларини кўриш ҳамда уни соддалаштирилган тартибда тезкорлик билан янгиланган бориш (тўлдириш) механизмларини жорий этиш белгиланган;

Ўзбекистон Республикаси Наркотиклар ва ўқотар қуролларни назорат қилиш агентлигига гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорлар муомаласи устидан тизимли назорат-текширувларни амалга ошириш ваколати, шунингдек, прекурсорларнинг ноқонуний айланмаси юзасидан ваколатли ҳуқуқ-тартибот органларига терговга қадар текширувни ўтказиш бўйича тақдимнома киритиш ҳуқуқи берилгани маълумот учун қабул қилинсин.

2. Қуйидагиларни назарда тутувчи Ўзбекистон Республикасида прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш тўғрисидаги ягона низом иловага мувофиқ тасдиқлансин:

прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш, ваколатли органларнинг ушбу йўналишдаги аниқ вазифаларини белгилаш;

прекурсорлар ва таркибида прекурсорлар мавжуд дори воситаларига бўлган эҳтиёжни аниқлаш тартиби;

прекурсорларни республика ҳудудига олиб кириш, олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш тартиби;

прекурсорларни ишлаб чиқариш, тайёрлаш, сақлаш, ташиш, йўқ қилиш ва реализация қилиш (бериш) тартиби;

прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолиятни амалга оширувчи тегишли лицензияга эга юридик шахслар фаолиятини мониторинг қилиш тартиби ва уларнинг ҳисобдорлиги.

3. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар устидан назорат қилиш бўйича давлат комиссияси (кейинги ўринларда — Давлат комиссияси) томонидан ваколатли давлат органларининг тақлифлари асосида республикада муомаласи чекланган прекурсорлар рўйхатини соддалаштирилган тартибда тасдиқлаш, тўлдириш, ўзгартириш ва унга қўшимчалар киритиш амалиёти йўлга қўйилади;

прекурсорларнинг ишлаб чиқарилишидан (олиб кирилишидан) бошлаб реализация қилинишигача (транзит ўтиши, маҳсулот ишлаб чиқаришда фойдаланиш, сотиш, сақлаш, бериш ва бошқа) бўлган барча жараёнларни электрон назорат қилиш тизими жорий этилади;

республикада муомалада бўлиши чекланган прекурсорлар рўйхатига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисидаги маълумотлар аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари хабардор бўлиши учун ваколатли органларнинг расмий веб-саҳифаларида эълон қилиб борилади;

прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқиш ва транзит ўтказиш учун сертификат (рухсатнома) «Лицензия» ахборот тизими орқали берилади.

4. Соғлиқни сақлаш вазирлиги (Э. Адилов) республи-

када муомаласи чекланган рўйхатларга киритилган, таркибида гиёҳвандлик воситалари, психотроп ва алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар мавжуд дори воситалари муомаласи жараёнларини рақамлаштириш бўйича ишлаб чиқилган ва 2027 йил 1 январдан ишга тушириладиган ахборот тизимида прекурсорлар муомаласини электрон назорат қилиш ва рақамлаштиришни назарда тутувчи алоҳида модулни яратсин. Бунда:

яратилаётган ахборот тизими доирасида прекурсорлар муомаласи бўйича «хавфни таҳлил қилиш» имконияти яратилади;

мазкур модулни ишлаб чиқиш ва ишга тушириш билан боғлиқ барча харажатлар Тиббиётни ривожлантириш давлат мақсадли жамғармаси ҳисобидан амалга оширилади;

Соғлиқни сақлаш вазирлигининг «Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази» давлат муассасаси мазкур модулни юритиш бўйича масъул ҳисобланади, «Давлат ахборот тизимларини яратиш ва қўллаб-қувватлаш бўйича ягона интегратор — «UZINFOCOM» МСНУ модулни яратиш, қўллаб-қувватлаш, унинг сифати ва узлуксиз ишлаб туришини таъминлаш бўйича оператор этиб белгиланади.

5. Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги қўмитаси (А. Рафиқов) бир ой муддатда республикада муомалада бўлиши чекланган прекурсорлар рўйхатидаги моддаларни турига қараб таснифлаш чораларини кўрсин.

6. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси (А. Джурабаев), Соғлиқни сақлаш вазирлиги (Э. Адилов) ва Савдо-саноат палатаси (Д. Вахабов) мазкур қарорнинг мазмун-моҳиятини тадбиркорлик субъектларига етказсин.

7. Манфаатдор вазирлик ва идоралар ўзлари қабул қилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни уч ой муддатда ушбу қарорга мувофиқлаштирсин.

8. Ушбу қарор расмий эълон қилинган кундан эътиборан олти ой ўтгач кучга кирилади.

9. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Наркотиклар ва ўқотар қуролларни назорат қилиш агентлиги директори ҳамда Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазири Э.Э. Адилов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг

Бош вазири А. АРИПОВ

Тошкент ш.,

2026 йил 26 июнь, 337-сон

Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 26 июндаги
337-сон қарорига
ИЛОВА

Ўзбекистон Республикасида прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш тўғрисида ЯГОНА НИЗОМ

1-БОБ. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1. Ушбу Низом прекурсорларни олиш, жўнатиш, ҳисобга олиш, бериш, ташиш, сақлаш, сотиш, тақсимлаш, йўқ қилиш, Ўзбекистон Республикасига олиб кириш ҳамда Ўзбекистон Республикасидан олиб чиқиш ва Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан транзит ўтказиш тартибини белгилайди.

Мазкур Низом талаблари прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолиятни амалга ошириш бўйича тегишли лицензияга эга юридик шахслар учун мажбурий ҳисобланади.

Прекурсорлар билан боғлиқ фаолият Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси белгиланган тартиб асосида лицензияланади.

2. Ўзбекистон Республикасида муомаласи чекланган прекурсорлар рўйхатини тасдиқлаш, тўлдириш, унга тегишли ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш соддалаштирилган тартибда Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар устидан назорат қилиш бўйича давлат комиссиясининг (кейинги ўринларда — Давлат комиссияси) тегишли қарори асосида амалга оширилади.

Давлат комиссиясининг ўз ваколати доирасида қабул қилган қарорлари давлат органлари ва ташкилотлар ҳамда прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолиятни амалга ошириш бўйича тегишли лицензияга эга юридик шахслар томонидан бажарилиши мажбурий ҳисобланади.

3. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

ахборот тизими — республикада муомаласи чекланган рўйхатларга киритилган, таркибида гиёҳвандлик воситалари, пси-

хотроп ва алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар мавжуд дори воситалари ҳамда прекурсорларнинг ишлаб чиқарилишидан (олиб кирилишидан) бошлаб реализация қилинишигача (транзит ўтказиш, маҳсулот ишлаб чиқаришда фойдаланиш, сотиш, сақлаш, бериш ва бошқалар) бўлган барча жараёнларни онлайн режимда назорат қилиш имконини берувчи электрон маълумотлар базаси;

Давоми 2 - бетда»

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
ҚАРОРИЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ПРЕКУРСОРЛАРНИНГ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФАОЛИЯТНИ
ТАРТИБГА СОЛИШ ВА УЗЛУКСИЗ НАЗОРАТНИ ТАЪМИНЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

◀ Давоми. Боши 1-бетда

ваколатли орган – мазкур Низомнинг 7-бандида кўрсатилган прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолиятни тартибга солиш, узлуксиз назоратни таъминлаш ҳамда уларнинг ноқонуний муомаласига қарши курашувчи давлат органлари;

Давлат комиссияси – Ўзбекистон Республикасида муомаласи чекланган прекурсорлар рўйхатини тасдиқловчи, уни янги турдаги кимёвий моддалар билан тўлдирувчи ёки рўйхатдан чиқариш бўйича тегишли ўзгартириш ва қўшимчалар киритувчи ҳамда прекурсорларнинг қонуний муомаласи бўйича давлат сиёсатини белгиловчи орган;

ишлаб чиқариш объекти – прекурсорларни ишлаб чиқарувчи корхоналар ёки уларнинг цехлари, участкалари, майдончалари, шунингдек, бошқа ишлаб чиқариш объектилари;

лицензияловчи орган – Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларнинг муомалада бўлиши билан боғлиқ фаолиятни лицензияловчи органи;

лицензиатлар – прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқиш, ишлаб чиқариш, тайёрлаш, сақлаш, реализация қилиш (бериш), ташиш, улардан фойдаланиш, шунингдек, уларни йўқ қилиш фаолиятини амалга ошириш бўйича тегишли лицензияга эга юридик шахслар;

лицензия – юридик шахсга бериладиган, талаблари ва шартларига мажбурий равишда роя этилган тақдирда, фаолиятнинг лицензияланган турини ёки унинг кичик турини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи ҳужжат;

мониторинг – лицензиатларнинг прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолиятини келишилган режага асосан бевосита жойига чиққан ҳолда ўрганиш. Мониторинг натижасига кўра лицензиатларга чора кўрилишига йўл қўйилмайди;

прекурсорлар – прекурсорлар рўйхатига киритилган ва Ўзбекистон Республикасида муомалада бўлиши чекланган, гиёҳвандлик воситалари, психотроп ва кучли таъсир қилувчи моддаларни (кейинги ўринларда – гиёҳвандлик воситалари) тайёрлаш учун фойдаланиладиган, шунингдек, саноат, фармацевтика ва бошқа соҳаларда қўлланадиган кимёвий моддалар;

сақлаш жойлари – прекурсорларни сақлашга мўлжалланган объектлар (омборхоналар, усти очик ва ёпик майдончалар, резервуар жойлар);

хавфли юklar – ўзига хос хоссалари ва хусусиятлари туфайли муайян омиллар мавжуд бўлган тақдирда, ташиш, ортиш-тушириш ишлари жараёнида ташилаётган юklar, техника воситалари, қурилмалар, бино ва иншоотлар, бошқа объектларнинг портлаши, ёниши ёки шикастланишига, шунингдек, одамлар ҳаёти ва соғлиғига, атроф-муҳитга зарар етказилишига сабаб бўлиши мумкин бўлган моддалар, материаллар, буюмлар, чикиндилар;

Хавфсизлик паспорти – кимёвий маҳсулотлар (моддалар, аралашмалар, материаллар, саноат чикиндилари) учун норматив ҳужжатларнинг мажбурий таркибий қисми бўлган ва истеъмолчи кимёвий маҳсулотлардан фойдаланиш, уларни сақлаш, ташиш ва йўқ қилиш хавфсизлиги тўғрисида ҳамда инсон ҳаёти ва соғлиғи, мулк ва атроф-муҳит хавфсизлигини таъминлаш учун ишончли маълумот беришга мўлжалланган, ишлаб чиқарувчи ташкилот томонидан (ишлаб чиқарадиган) бериладиган ва белгиланган қонунчилик талаблари асосида тегишли ваколатли давлат ташкилоти томонидан

белгиланган тартибда расмийлаштирилган ҳужжат.

4. Ўзбекистон Республикасида муомалада бўлиши чекланган прекурсорлар рўйхати иккита кичик рўйхатларга бўлинади:

биринчи кичик рўйхат – муомаласи қатъий назоратга олинган прекурсорлар рўйхати бўлиб, унга гиёҳвандлик воситаларини ишлаб чиқаришда кенг қўлланадиган кимёвий моддалар киритилади;

иккинчи кичик рўйхат – умумий назоратдаги прекурсорлар рўйхати бўлиб, унга гиёҳвандлик воситаларини тайёрлашда ишлатилиши мумкин бўлган, шунингдек, саноат, фармацевтика ва бошқа соҳаларда қўлланадиган кимёвий моддалар киритилади.

**2-БОБ. ПРЕКУРСОРЛАР
МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ
ФАОЛИЯТНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН
ТАРТИБГА СОЛИШ ВА УЗЛУКСИЗ
НАЗОРАТИНИ ТАЪМИНЛАШ**

5. Давлат комиссияси прекурсорларнинг муомаласи устидан назоратни ўрнатиш ҳамда ноқонуний муомаласига қарши курашиш соҳасида давлат сиёсати амалга оширилишини таъминловчи идоралараро коллегиял орган ҳисобланади.

6. Давлат комиссияси:
Ўзбекистон Республикасида муомаласи чекланган прекурсорлар рўйхатини тасдиқлайди, уни янги турдаги кимёвий моддалар билан тўлдиради ёки рўйхатдан чиқариш бўйича тегишли ўзгартириш ва қўшимчалар киритади;

лицензия талабларига роя этилишини мониторинг қилиш жараёнига мутахассисларни жалб этади;

прекурсорлар назорати соҳасига оид тахлилий материал ва таклифларни йиғишларда кўриб чиқиб, тегишли қарор қабул қилади.

7. Ўзбекистон Республикаси Наркотиклар ва ўқотар қуролларни назорат қилиш агентлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги «Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази» давлат муассасаси, Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги қўмитаси, Давлат хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитаси (кейинги ўринларда – Божхона қўмитаси), Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолиятни тартибга солиш, узлуксиз назоратни таъминлаш ва уларнинг ноқонуний муомаласига қарши курашувчи давлат органлари ҳисобланади.

8. Ўзбекистон Республикаси Наркотиклар ва ўқотар қуролларни назорат қилиш агентлиги (кейинги ўринларда – Агентлик):
прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолият устидан тизимли давлат назорати функциясини амалга оширади ҳамда ваколатли давлат органларининг ушбу соҳадаги фаолиятини мувофиқлаштиради;

ваколатли органларнинг таклифига кўра янги турдаги кимёвий моддаларни прекурсорлар рўйхатига киритиш бўйича Давлат комиссиясига таклиф киритади;

прекурсорларни республика ҳудудига олиб кириш, ундан олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш бўйича тегишли қарор қабул қилади;

прекурсорларнинг ноқонуний айланмаси юзасидан ваколатли ҳуқуқ-тартибот органларига терговга қадар текширувни ўтказиш юзасидан тақдимномалар киритади;

прекурсорларни ишлаб чиқариш фаолияти билан шуғулланувчи лицензиатлар томонидан технологик регламент талабларига роя этилишини ўрганади;

лицензиянинг амал қилиш муддатини тўхтатиб туриш тўғрисида лицензияловчи орган ёки судга даъво аризасини киритади;

лицензия талаб ва шартларига роя этилишини мониторинг қилиш бўйича лицензиатлар билан келишган ҳолда режалар ишлаб чиқади ва тасдиқлайди;

лицензиатлар фаолиятини мониторинг қилиш бўйича ишчи гуруҳларни тузади ва уларга раҳбарлик қилади;

лицензиатлар фаолиятида аниқланган камчиликлар ўз вақтида бартараф этилишини назорат қилади, бартараф этилмаган тақдирда, тегишли чора кўради;

ахборот тизимидаги прекурсорлар айланмаси билан боғлиқ маълумотлар асосида лицензиатлар фаолиятини тезкорлик билан текширади ёки текшириш бўйича Ички ишлар вазирлигига хабар беради;

сақлаш жойларининг прекурсорларни сақлашга доир белгиланган техник талабларга мувофиқлиги бўйича расмийлаштирилган ҳулосада аниқланган камчиликлар юзасидан лицензияловчи органнинг тегишли маълумоти асосан Ички ишлар вазирлигига тақдимнома киритади.

9. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги «Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази» давлат муассасаси (кейинги ўринларда – Марказ):

прекурсорларни республика ҳудудига олиб кириш ва ундан олиб чиқиш учун сертификат ва транзит тарзида ўтказишда рухсатнома расмийлаштиради;

прекурсор сақловчи дори воситаларини давлат рўйхатидан ўтказиш, уларнинг республика ҳудудига киришида мувофиқлик сертификатини беради;

лицензия талабларига роя этилишини мониторинг қилишда қатнашади ва прекурсорлар муомаласи устидан мониторинг олиб боради;

ахборот тизимини юритади, Ўзбекистон Республикасининг прекурсорларга бўлган йиллик эҳтиёжини умумлаштириб, ахборот тизимига киритади ва таҳлил қилади;

прекурсорларни ишлаб чиқарувчилар ва уларнинг якуний фойдаланувчиларининг реестрини юритади;

лицензиатларнинг прекурсорларга бўлган йиллик эҳтиёжини (юқори турувчи ташкилот мавжуд бўлмаган тақдирда) келишадди;

прекурсорларнинг экспорти, импорти ва транзити бўйича хорижий давлатлар билан ахборот алмашади;

прекурсорлар муомаласини тартибга солишга доир БМТ конвенцияларида белгиланган тавсиялар бўйича Ўзбекистон Республикасининг халқаро мажбуриятларини бажаради.

10. Ўзбекистон Республикаси Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги қўмитаси:

ёниш ва портлаш хавфи юқори бўлган прекурсорларни ишлаб чиқариш, сақлаш ва ташиш жараёнларини ўрганади ҳамда аниқланган қонун бузилиши ҳолатлари юзасидан Агентликка ахборот киритади;

аниқланган кимёвий моддаларни таснифлари бўйича тақсимлайди ва бу бўйича Агентликка тегишли ҳулоса тақдим этади.

11. Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати (кейинги ўринларда – ДХХ):

прекурсорларни республика ҳудудига олиб кириш, ундан олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш бўйича ҳужжатларни кўриб чиқади ҳамда тегишли ҳулоса тақдим этади;

прекурсорларнинг ноқонуний муомаласига қарши тезкор тадбирларни амалга оширади;

ваколати доирасида лицензия талабларига ва шартларига роя этилишини мониторинг қилишда қатнашади.

12. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги (кейинги ўринларда – ИИВ):

прекурсорларни республика ҳудудига

олиб кириш, ундан олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш бўйича ҳужжатларни кўриб чиқади ҳамда тегишли ҳулоса тақдим этади;

ахборот тизимидаги прекурсорлар айланмаси билан боғлиқ маълумотлар асосида лицензиатлар фаолиятини тезкорлик билан текширади;

сақлаш жойларининг прекурсорларни сақлашга доир техник талабларга мувофиқлигини жойига чиққан ҳолда ўрганади ва тегишли ҳулоса тақдим этади;

прекурсорларнинг ноқонуний муомаласига қарши тезкор тадбирларни амалга оширади;

ваколати доирасида лицензия талабларига ва шартларига роя этилишини мониторинг қилишда қатнашади;

прекурсорларни йўқ қилиш жараёнида комиссия аъзоси сифатида иштирок этади;

хавфли юklar тоифасига киритилган прекурсорларни ташишда шартнома асосида кузатиш ишларини амалга оширади.

13. Божхона қўмитаси:

республика ҳудудига олиб кирилган, олиб чиқилган ва транзит тарзида ўтказилган прекурсорлар тўғрисидаги маълумотни юк чегарадан кесиб ўтган вақтнинг ўзида ахборот тизимига киритади;

прекурсорларнинг республика ҳудудига олиб кирилиши, олиб чиқилиши ёки транзит тарзида ўтказилишини назорат қилади;

прекурсорларнинг ноқонуний муомаласига қарши тезкор тадбирларни амалга оширади.

14. Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси:

прекурсорларни ишлаб чиқариш ва тайёрлаш жараёнлари юзасидан лицензияловчи органга тегишли ҳулоса тақдим этади;

прекурсорларни ишлаб чиқариш ва йўқ қилишнинг атроф-муҳитга таъсири бўйича тегишли ҳулоса беради;

прекурсорларни йўқ қилиш жараёнида комиссия аъзоси сифатида қатнашади.

15. Прекурсорларнинг ноқонуний муомаласида янги турдаги кимёвий моддалар аниқланган тақдирда, ваколатли органлар томонидан уларни муомаласи чекланган прекурсорлар рўйхатига киритиш тўғрисида Агентликка таклифлар киритилади.

**3-БОБ. ПРЕКУРСОРЛАР БИЛАН
БОҒЛИҚ ЖАРАЁНЛАРНИ
АМАЛГА ОШИРИШ ТАРТИБИ**

16. Прекурсорларни сотиб олишда харидорнинг ҳуқуқий асослари, шу жумладан, лицензиялар, рўйхатдан ўтказиш ҳужжатлари ва моддадан мақсадли фойдаланишни тасдиқловчи ҳужжатлар текширилади. Ҳар бир операция белгиланган тартибда қайд этилиб, прекурсорнинг номланиши, миқдори, санаси ва харидор ҳақидаги маълумотлар кўрсатилади, бу эса тўлиқ кузатувчанлик ва аудиторликни таъминлайди.

17. Прекурсорларни реализация қилишда сотувчи органлар белгиланган талабларга амал қилиши, шубҳали ёки стандартдан ташқари операциялар ҳақида маълумот бериши ва сўралган тақдирда назорат органларига маълумот тақдим этиши шарт.

18. Прекурсорларни ташиш, шу жумладан, халқаро ташиш ҳамда мазкур фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган ҳужжатларни расмийлаштириш тартиби қонунчилик ҳужжатлари билан белгиланади.

19. Прекурсорлар ички ишлар органлари билан келишилган ҳолда, ҳарбийлаштирилган қўриқлаш бўлинмалари ёки бошқа қўриқлаш хизматлари томонидан ташилади.

20. Прекурсорларни ташиш фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқи мазкур соҳада тегишли лицензияга эга бўлган юридик шахсларга берилади.

▶ Давоми 3-бетда

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
ҚАРОРИЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ПРЕКУРСОРЛАРНИНГ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФАОЛИЯТНИ
ТАРТИБГА СОЛИШ ВА УЗЛУКСИЗ НАЗОРАТНИ ТАЪМИНЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

◀ Давоми. Боши 1-2 бетларда

21. Жисмоний шахслар томонидан таркибида прекурсорлар мавжуд бўлган дори воситаларини шахсий фойдаланиш мақсадида тиббий кўрсатмаларга асосан ва тасдиқловчи ҳужжатлар мавжуд бўлган тақдирда, Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш ва ундан олиб чиқишга йўл қўйилди.

22. Прекурсорларни почта, шу жумладан, почта ва курьерлик жўнатмаларида жўнатиш тақиқланади, экспертлик ва тезкор-қидирув фаолиятида фойдаланиш ҳамда таркибида прекурсорлар сакловчи дори воситаларини Ўзбекистон Республикасида рўйхатдан ўтказиш ёки қайта рўйхатдан ўтказиш учун намуна сифатида юбориш ҳолатлари бундан мустасно.

**4-БОБ. ПРЕКУРСОРЛАР ВА
ТАРКИБИДА ПРЕКУРСОРЛАР
МАВЖУД ДОРИ ВОСИТАЛАРИГА
БЎЛГАН ЭХТИЁЖНИ
АНИҚЛАШ ТАРТИБИ**

23. Маҳсулот ишлаб чиқариш учун прекурсорлардан фойдаланувчилар ва прекурсорларни реализация қилиш билан шуғулланувчи ташкилотлар ўз эҳтиёжларини аниқлашда қуйидагиларни амалга оширади:

ҳисобот йилида прекурсорларни сарфлашнинг белгиланган нормаларидан келиб чиққан ҳолда кейинги йил учун ўз эҳтиёжларини аниқлайди;

кейинги йил ишлаб чиқариш учун прекурсорларга бўлган эҳтиёжларни аниқлашда ҳисобот йили бошидаги қолдиқни ҳисобга олади;

эҳтиёжни юқори турувчи ташкилот ёки Марказ (юқори турувчи ташкилот мавжуд бўлмаган тақдирда) билан келишади;

прекурсорларга бўлган эҳтиёжлар тўғрисидаги маълумотларни ахборот тизимига киритишда бир тадқиқот учун реактив сарфи нормаси, бир йил давомида ўтказиладиган тадқиқотлар сони ва уларда фойдаланиладиган прекурсорларни акс эттиради.

24. Илмий ва ўқув мақсадларида фойдаланиладиган прекурсорларга бўлган йиллик эҳтиёж бир тадқиқот учун реактив сарфи нормаси, бир йилдаги тадқиқотлар сони ва уларда қўлланадиган прекурсорларнинг ўзига хослигини ҳисобга олган ҳолда аниқланади.

Прекурсорлардан илмий мақсадларда фойдаланишда тадқиқот усуллари ўзгарган тақдирда, илмий-тадқиқот институтлари томонидан фойдаланиш учун қўшимча ҳажмлар олинishi мумкин, бунда қўшимча ҳажмларни тасдиқлаш муддати уч кундан ошмаслиги керак.

25. Прекурсорлардан хомашё ёки материал сифатида фойдаланадиган корхона ва ташкилот янги ёки кўзда тутилмаган маҳсулотни ишлаб чиқаришда прекурсорларга бўлган эҳтиёжни янги маҳсулотнинг техник регламентларига мувофиқ аниқлайди.

26. Ўзбекистон Республикасининг таркибида прекурсорлар мавжуд дори воситаларига бўлган йиғма эҳтиёжи Марказ томонидан аниқланади ҳамда БМТнинг 1988 йилдаги Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний муомаласига қарши курашиш тўғрисидаги конвенцияси талабларига мувофиқ Агентлик билан келишилган ҳолда, БМТнинг Халқаро наркотикларни назорат қилиш қўмитасига (кейинги ўринларда – Халқаро қўмита) тақдим этилади.

27. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти кўрсатмасига мувофиқ лицензиат томонидан тиббиётда фойдаланиш учун мўлжалланган, таркибида прекурсорлар мавжуд дори воситаларига бўлган эҳтиёжни ҳисоблаш метёрлари сўнгги уч йиллик статисти-

стика маълумотларидан келиб чиқиб, ўртача миқдорларни ҳисоблаш орқали аниқланади. Бунда аниқланган эҳтиёж юридик шахс раҳбарининг қарори билан йиллик истеъмолнинг ўртача миқдоридан 10 – 20 фоизгача оширилиши мумкин.

28. Таркибида прекурсорлар мавжуд дори воситаларига бўлган эҳтиёжда қуйидагилар кўрсатилади:

юридик шахс тўғрисидаги маълумотлар (номи, СТИР рақами);

юридик шахс лицензиясининг рақами ва амал қилиш муддати;

дори воситалари сифатида рўйхатга олинган таркибида прекурсорлар мавжуд дори воситаларининг номлари, уларнинг чиқарилиш шакли ва миқдори (ампулаларда, флаконларда, таблеткаларда, капсулаларда ва бошқалар);

таркибида прекурсорлар мавжуд дори воситаларига бўлган эҳтиёжнинг асосланган ҳисоб-китоблари.

29. Лицензиатларнинг таркибида прекурсорлар мавжуд дори воситаларидан фойдаланишга бўлган эҳтиёжи ёки қўшимча эҳтиёжи даволаш стандартларини ҳисобга олиб, тиббий ёрдам турига ва тиббий ташкилот бўлимларининг йўналишига боғлиқ ҳолда аниқланади.

Раҳбар томонидан тасдиқланган эҳтиёж ёки қўшимча эҳтиёж миқдорлари асосланган жадвал кўринишидаги маълумотлар (қандай муолажа ёки амалиётда ишлатилиши, йил давомида ўтказилиши режалаштирилаётган муолажа ёки амалиётлар сони, давомийлиги ва битта муолажа ёки амалиётга ишлатиладиган миқдори) билан бирга ахборот тизимига киритилади.

30. Ўзбекистон Республикасининг таркибида прекурсорлар мавжуд дори воситаларига бўлган умумий эҳтиёжи асосида прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолият учун тегишли лицензияга эга бўлган етказиб берувчилар билан шартномалар тузилади.

31. Лицензиатлар томонидан прекурсорлар ва таркибида прекурсорлар мавжуд дори воситаларига бўлган кейинги йил учун эҳтиёж маълумотлари ҳисобот йилининг 1 ноябридан 1 декабрига қадар бўлган муддатда ахборот тизимига киритилади.

32. Янги ташкил этилган лицензиатлар лицензия олингандан сўнг жорий ва кейинги йил учун эҳтиёжи тўғрисидаги маълумотни ахборот тизимига киритади.

33. Зарурат туғилганда, лицензиатлар қўшимча эҳтиёж тўғрисидаги маълумотни (асословчи ҳужжатларни илова қилган ҳолда) ахборот тизимига киритади.

**5-БОБ. ПРЕКУРСОРЛАРНИ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ҲУДУДИГА ОЛИБ КИРИШ, УНДАН
ОЛИБ ЧИҚИШ ТАРТИБИ**

34. Прекурсорлар Ўзбекистон Республикаси ҳудудига Марказ томонидан бериладиган сертификат асосида олиб кирилади ва ундан олиб чиқилади.

35. Прекурсорлар Ўзбекистон Республикасининг эҳтиёжлари доирасида лицензиатлар томонидан олиб кирилади.

36. Прекурсорлардан ички ишлар органлари, Давлат хавфсизлик хизмати ҳамда божхона органларининг экспертиза ва тезкор-қидирув фаолиятида, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Электрон технологияларини ривожлантириш маркази ҳамда Адлия вазирлигининг суд-экспертиза муассасалари фаолиятида лицензия олмасдан фойдаланилади.

37. Прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш ва олиб чиқишга сертификатни расмийлаштириш учун «Лицензия» ахборот тизими (кейинги ўринларда – «Лицензия» АТ) орқали ариза берилади, ариза ДХХ ҳамда ИИБ билан ке-

лишилгандан сўнг Агентликнинг тегишли қарорига асосан мазкур низомга 1-иловадаги схемага мувофиқ Марказ томонидан берилади.

38. Прекурсорлар Ўзбекистон Республикаси ҳудудига прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолият учун лицензияга эга юридик шахслар (кейинги ўринларда – ариза берувчи) томонидан мазкур Низомга 2-3-иловаларга мувофиқ шаклдаги қатъий ҳисобда турувчи, пушти рангли махсус бланкларда расмийлаштирилган сертификатлар асосида олиб кирилади ва олиб чиқилади.

39. Сертификатдан фақат бир маротаба фойдаланилади ва унинг муддати бир йил давомида амал қилади.

Сертификат ариза берувчига икки нусхада, шундан бир нусхаси экспорт қилувчи ташкилотга тақдим этиш учун берилади.

Берилган сертификат назорат қилинадиган моддаларнинг муомаласи билан боғлиқ лицензияга эга бўлишдан қатъи назар, бошқа юридик шахсга берилиши мумкин эмас.

40. Божхона қўмитаси прекурсорларнинг ҳақиқий олиб кирилгани (олиб чиқилгани) тўғрисидаги маълумотни юк чегарадан кесиб ўтган вақтнинг ўзида онлайн вақт режимида Агентлик ҳамда Марказга тақдим этади.

41. Республика ҳудудига импорт қилинган прекурсорлар реэкспорт қилинмайди.

42. Прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқишга рухсат бериш учун сертификат олиш талаблари ва шартларига қуйидагилар киради:

ариза берувчида прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолиятни амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензиянинг мавжудлиги;

прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқишда қонунчилик ҳужжатларига мажбурий риоя қилиниши;

сертификат олиш учун тақдим этиладиган маълумотларнинг ишончилиги таъминланиши;

ариза берувчи ташкилотнинг номи ёки манзили (почта ва/ёки фаолият манзили) ўзгарган тақдирда, қайта рўйхатдан ўтказилгандан сўнг ўн иш куни ичида Марказга «Лицензия» АТдаги шахсий кабинетига орқали мурожаат қилиши.

43. Сертификат олиш учун ариза берувчи томонидан «Лицензия» АТдаги шахсий кабинетига орқали қуйидаги ҳужжатлар Марказга тақдим этилади:

а) ариза берувчининг мазкур Низомга 4-иловага мувофиқ аризаси;

б) прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқиш учун шартнома нусхаси (тўлов учун ҳисоб);

в) Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан прекурсорларни олиб чиқишда – импорт қилувчи давлатнинг олиб киришга рухсат берилган ҳужжати (сертификат, рухсатнома, олиб кириш учун лицензия ёки бошқа рухсат этувчи ҳужжатлар);

г) прекурсорларни ишлаб чиқаришда фойдаланиш мақсадида олиб кирадиган ариза берувчиларнинг прекурсорларга бўлган тасдиқланган эҳтиёжлари тўғрисидаги маълумоти;

д) ариза берувчи сертификатни Марказ ёки почта орқали қабул қилишни танлайди.

44. Аризани кўриб чиқиш ва сертификатни расмийлаштириш учун қонунчилик ҳужжатларида белгиланган базавий ҳисоблаш миқдорининг саккиз баравари миқдорида йиғим ундирилади.

Йиғим тўлангани ахборот-коммуникация тизимлари орқали тасдиқланади.

Йиғим суммаси қуйидаги тартибда тақсимланади, агарда паспортларнинг 6-бандида бошқача тақсимот назарда тутилмаган тақдирда:

10 фоизи – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг Давлат хизматларини ривожлантириш жамғармасига;

0,5 фоизи – Ягона биллинг тизими орқали давлат хизматларини кўрсатганлик учун Ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш жамғармасининг электрон ҳукумат ва рақамли иқтисодиётнинг идоралараро лойиҳаларини молиялаштириш бўйича махсус ҳисобварағига;

қолган маблағлар – Гиёҳвандлик ва нарकोжиноятларга қарши курашиш тизимини ривожлантириш республика жамғармасига ва Марказнинг тегишли банк ҳисобварақларига тенг бўлган миқдорда ўтказилади.

45. Аризада қуйидаги маълумотлар кўрсатилган бўлиши керак:

а) ариза берувчининг номи ва жойлашган манзили, ишлаб чиқарувчи ва юкни қабул қилувчининг, шунингдек, импорт қилувчининг номи ва жойлашган манзили (олиб чиқиш фаолияти амалга оширилганда);

б) рўйхатда кўрсатилган прекурсорнинг номи, ТИФ ТН коди ва миқдори;

в) прекурсорларни олиб кирадиган ва олиб чиқадиغان давлат номи;

г) прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқиш жойи ва муддати;

д) прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқиш мақсадлари;

ж) прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқиш учун мўлжалланган транспорт тури ёки уларни жўнатиш усуллари.

46. Марказ сертификатни расмийлаштириш учун керакли ҳужжатларни ариза берувчидан қабул қилиб олгандан сўнг бошқа ваколатли органлардан қуйидаги ҳужжатлар ва маълумотларни ўзаро ахборот ҳамкорлиги орқали электрон шаклда олади:

а) Марказ томонидан берилган дори воситасини рўйхатдан ўтказиш гувоҳномаси нусхаси (дори воситаси таркибида прекурсорлар мавжуд бўлган ҳолларда);

б) Соғлиқни сақлаш вазирлиги томонидан берилган прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолиятни амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензиянинг нусхаси.

47. Ариза берувчидан ушбу Низомнинг 36-бандида назарда тутилмаган ҳужжатларни талаб қилишга йўл қўйилмайди.

48. Марказ аризани қабул қилган кундан бошлаб Ўзбекистон Республикасида муомалада бўлиши чекланган прекурсорлар рўйхатининг биринчи кичик рўйхатдаги прекурсорларни ўттиз иш куни, иккинчи кичик рўйхатдаги прекурсорларни эса йигирма иш кундан ортиқ бўлмаган муддатда кўриб чиқиб, сертификат беради ёки сертификат беришни рад этади.

49. Марказ ҳужжатлар тўпламини ўрганади ва мазкур Низомнинг 38 ва 39-бандларида келтирилган ҳужжатлар тўпламини келишиш учун «Лицензия» АТ орқали ДХХ ҳамда ИИБга юборади.

50. ДХХ ва ИИБ ҳужжатларни кўриб чиқиб, биринчи кичик рўйхатдаги прекурсорлар бўйича ўн беш иш куни, иккинчи кичик рўйхатдаги прекурсорлар бўйича эса ўн иш кундан ортиқ бўлмаган муддатда кўриб чиқиб, тегишли хулосани Агентликка юборади.

51. Агентлик ҳужжатларни беш иш кундан ортиқ бўлмаган муддатда кўриб чиқиб, тегишли қарорни Марказга тақдим этади.

52. Агентлик қарори асосида Марказ ариза берувчига беш иш кундан кечиктирмаган ҳолда сертификат берилиши тўғрисида ёки ДХХ ва ИИБнинг (рад этилган ҳолатда) тегишли хулосалари асосида рад этиш асослари ва қонунчиликнинг аниқ нормаларини кўрсатган ҳолда ариза берувчига ахборот тизими орқали хабарнома юборади.

Марказ сертификатни анъанавий тарзда

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
ҚАРОРИЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ПРЕКУРСОРЛАРНИНГ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФАОЛИЯТНИ
ТАРТИБГА СОЛИШ ВА УЗЛУКСИЗ НАЗОРАТНИ ТАЪМИНЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА◀**Давоми. Боши 1,2 ва-3 бетларда**

ариза берувчининг ўзига ёки почта хизмати орқали ариза берувчи кўрсатган манзилга юборади.

Ариза қабул қилингандан сўнг ариза берувчи сертификат олишдан бош тортган ҳолларда, тўланган тўлов суммаси қайтарилмайди.

53. Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кирилатган прекурсорларни божхона омборларига жойлаштиришга Марказ томонидан олиб кириш учун берилган сертификатларнинг мавжудлиги асос бўлади.

54. Расмийлаштирилган сертификатлар ва улардаги маълумотлар «Ягона дарча» божхона ахборот тизимига Марказ масъул шахслари томонидан киритилади.

55. Сертификатнинг берилиши куйидаги сабабларга кўра рад этилиши мумкин:

а) ариза берувчи томонидан сертификат олиш учун зарур бўлган ҳужжатлар тўлиқ тақдим этилмаганда;

б) ариза берувчи рухсат бериш тартиб-таомилларига мос келмаганда;

в) ўрганиш натижаларига кўра ДХХ ёки ИИВнинг асослангандан рад этиш ҳулоаси ёки Агентликнинг сертификат бериш мумкин эмаслиги тўғрисидаги қарори тақдим этилганда;

г) ариза берувчи томонидан тақдим этилган ҳужжатларда шубҳали ёки нотўғри маълумотлар мавжуд бўлганда.

56. Сертификат беришни бошқа асосларга кўра, шу жумладан, мақсадга мувофиқ эмас деган вазлар билан рад этишга йўл қўйилмайди.

Сертификат беришни рад этилган ҳолларда, тўланган йиғим суммаси қайтарилмайди.

57. Ариза берувчи сертификат беришни рад этиш учун асос бўлган сабабларни бартараф этган тақдирда, уларни тасдиқловчи тегишли ҳужжатлар ва рад этиш сабабларини бартараф этиш тўғрисидаги ариза Марказ томонидан ўн иш кунидан ортиқ бўлмаган муддатда қайта кўриб чиқилади.

58. Сертификат бериш тўғрисидаги аризани қайта кўриб чиқиш жараёнида хабарномада олдин кўрсатилмаган сабаблар туфайли сертификат беришни рад этишга йўл қўйилмайди.

Ариза қайта кўриб чиқилгани учун қонунчилик ҳужжатларида белгиланган базавий ҳисоблаш миқдорининг бир баравари миқдорида йиғим ундирилади ҳамда ушбу Низомнинг 37-бандида назарда тутилган тартибда тақсимланади.

59. Ариза берувчи Марказнинг мансабдор шахслари ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) ҳамда сертификат беришни рад этиш тўғрисидаги қарори устидан белгиланган тартибда шикоят қилиш ҳуқуқига эга.

60. Сертификат йўқолганда ёки яроксиз ҳолатга келганда, ариза берувчи «Лицензия» АТ орқали Марказга дубликат олиш учун ариза беради.

Марказ аризани беш иш кунидан ошмаган муддатда кўриб чиқиб, «Дубликат» белгиси қўйилган янги сертификатни анъанавий тарзда ёки почта хизмати орқали ариза берувчига тақдим этади.

Сертификатнинг дубликати берилганлиги учун базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн фоизи миқдорида йиғим ундирилади ва ундирилган йиғим ушбу Низомнинг 37-бандида белгиланган тартибда тақсимланади.

61. Сертификат яроксиз ҳолатга келган ҳолда унинг асл нусхаси ҳам Марказга тақдим этилиши керак.

62. Сертификатнинг амал қилиш муддатини тўхтатиб туриш ёки тугатиш ва бекор қилиш Ўзбекистон Республикасининг «Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги Қонунида назарда тутилган ҳолларда белги-

ланган тартибда амалга оширилади.

63. Сертификатлар реестри «Лицензия» АТда электрон шаклда ҳар бир сертификат бўйича алоҳида юритилади ва ундаги маълумот барча учун очик ҳисобланади.

64. Сертификатлар реестри автоматик равишда шакллантирилади, унинг доимий юритилиши ва унга тегишли ўзгартиришларни киритиш Марказ томонидан амалга оширилади.

Марказ сертификатлар реестрини юритишда ушбу Низом ва бошқа қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибларга риоя қилиши лозим.

65. Марказ куйидаги маълумотларни сертификатлар реестрига ўз вақтида киритиб боришга жавобгар:

сертификат берилган сана ва сертификат рақами;

ариза берувчининг номи, ташкилий-ҳуқуқий шакли, почта манзили ва телефон рақами;

сертификатда олиб кирилатган, олиб чиқилаётган прекурсорларнинг номи ва миқдори;

сертификатнинг амал қилиш муддати;

сертификатни тўхтатиб туриш асоси ва санаси;

сертификатни амал қилиш муддатини тугатиш асоси ва санаси;

сертификатни бекор қилиш асоси ва санаси;

сертификатнинг дубликатини бериш асоси ва санаси.

66. Сертификат эгаси тўғрисидаги батафсил маълумотлар базаси ваколатли органлар фойдаланиши учун шакллантирилади ва унда рухсат бериш жараёнида киритилган барча маълумотлар ҳамда илова қилинадиган ҳужжатларнинг электрон нусхалари сақланади.

Ушбу маълумотлар базасида сертификатлар реестрига киритилмаган ахборотлар мавжуд бўлган тақдирда, Марказ томонидан мазкур ахборотлар ва илова қилинган ҳужжатлар бошқа шахсларга ошкор қилиниши тақиқланади.

**6-БОБ. ПРЕКУРСОРЛАРНИ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ҲУДУДИ ОРҚАЛИ ТРАНЗИТ
ТАРЗДА ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ**

67. Прекурсорлар Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали транзит тарзида ўтказиш учун бериладиган рухсатнома асосида ўтказилади.

Бунда хавфли юклар рўйхатига кирувчи прекурсорларни Вазирлар Маҳкамаси белгиланган махсус ваколатли орган рухсатсиз Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали транзит тарзида ўтказиш тақиқланади.

68. Прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали транзит тарзида ўтказиш учун рухсатномани расмийлаштириш учун «Лицензия» АТ орқали ариза берилади, ариза ДХХ ҳамда ИИВ билан келишилгандан сўнг Агентликнинг тегишли қарорига асосан мазкур Низомга 5-иловадаги схемага мувофиқ Марказ томонидан берилади.

69. Юридик шахслар томонидан прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали мазкур Низомга 6-иловага мувофиқ шаклдаги қатъий ҳисобда турувчи, пушти рангли махсус бланкада расмийлаштирилган ҳолда, бир нусхада бериладиган транзитга рухсатнома мавжуд бўлган тақдирда транзит ўтказилади.

70. Транзит рухсатномасидан фақат бир маротаба фойдаланилади ва унинг муддати бир йил давомида амал қилади.

71. Божхона кўмитаси прекурсорларнинг транзит тарзида ўтказилгани тўғрисидаги маълумотни юк чегарадан кесиб ўтган вақтининг ўзида онлайн вақт режимида Агентлик ҳамда Марказга тақдим этади.

72. Прекурсорларнинг транзити импорт

қилувчи мамлакатнинг махсус ваколатли органи томонидан прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқи учун берилган ҳужжатга (рухсатнома, сертификат, лицензия ва бошқалар) эга бўлган ариза берувчи томонидан амалга оширилади.

73. Прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали транзит тарзида ўтказиш учун рухсатнома олишда ариза берувчи Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида белгиланган рухсат этувчи талаблар ва шартларга риоя қилиши шарт.

74. Транзит ўтказишга рухсатномани олиш учун ариза берувчи томонидан «Лицензия» АТдаги шахсий кабинети орқали куйидаги ҳужжатлар Марказга тақдим этилади:

а) мазкур Низомга 7-иловага мувофиқ транзит рухсатномасини олиш учун ариза;

б) лицензия ёки прекурсорлар муомаласи билан шуғулланиш ҳуқуқи учун бошқа рухсатномалар нусхаси;

в) прекурсорларни етказиб бериш бўйича шартнома нусхаси;

г) экспорт ва импорт қилувчи мамлакатларнинг махсус ваколатли органлари томонидан берилган прекурсорларнинг экспортга (импорти) рухсат берувчи ҳужжат (сертификат, рухсатнома, олиб кириш, олиб чиқиш учун лицензия). Агар транзит тарзида жўнатиладиган прекурсорлар импорт қилувчи/экспорт қилувчи мамлакатда назоратга олинмаган бўлса, импорт қилувчи/экспорт қилувчи мамлакатнинг ваколатли органи томонидан расмий хат тақдим этилади;

д) божхона юк декларациясининг нусхаси.

75. Ариза берувчидан ушбу Низомнинг 66-бандида назарда тутилмаган ҳужжатларни талаб қилишга йўл қўйилмайди.

76. Аризада куйидагилар кўрсатилган бўлиши керак:

ариза берувчи – импорт қилувчи ташкилот, юк жўнатувчи ташкилот ва мамлакат номи ҳамда юридик манзили;

рўйхатда кўрсатилган прекурсорнинг номи, ТИФ ТН коди ва миқдори;

контракт (шартнома) рақами ва санаси, экспорт қилувчи ва юкни қабул қилувчи ташкилот ва мамлакат номи ҳамда юридик манзили;

экспорт қилувчи давлатдан олиб чиқиш ва импорт қилувчи давлатга олиб кириш пунктларини кўрсатувчи йўналиш маршрути, транспорт тури;

етказиб бериш тартиби кўрсатилган ҳолда мўлжалланган транзит муддати.

77. Марказ аризани йиғирма иш кундан ортиқ бўлмаган муддатда кўриб чиқиб, натижаси бўйича транзит рухсатномасини беради ёки беришни рад этади.

78. Аризани кўриб чиқиш ва рухсатнома расмийлаштириш учун қонунчилик ҳужжатларида белгиланган базавий ҳисоблаш миқдорининг саккиз баравари миқдорида йиғим ундирилади.

Йиғим тўланганлиги ахборот-коммуникация тизимлари орқали тасдиқланади.

Йиғим суммаси куйидаги тартибда тақсимланади, агарда паспортларнинг 6-бандида бошқача тақсимот назарда тутилмаган тақдирда:

10 фоизи – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг Давлат хизматларини ривожлантириш жамғармасига;

0,5 фоизи – Ягона биллинг тизими орқали давлат хизматларини кўрсатганлик учун Ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш жамғармасининг электрон ҳуқуқат ва рақамли иқтисодиётнинг идораларо лойиҳаларини молиялаштириш бўйича махсус ҳисобварағига;

қолган маблағлар – Гиёҳвандлик ва нарकोжиноятларга қарши курашиш тизимини

ривожлантириш республика жамғармасига ва Марказнинг тегишли банк ҳисобварақларига тенг бўлган миқдорда ўтказилади.

79. Марказ ҳужжатлар тўпламини ўрганади ва келишиш учун «Лицензия» АТ орқали ДХХ ҳамда ИИВга юборади.

80. ДХХ ва ИИВ ҳужжатларни ўн иш кунидан ортиқ бўлмаган муддатда кўриб чиқиб, тегишли ҳулосани Агентликка юборади.

81. Агентлик ҳужжатларни беш иш кунидан ортиқ бўлмаган муддатда кўриб чиқиб, тегишли қарорни Марказга тақдим этади.

82. Агентлик қарори асосида Марказ ариза берувчига беш иш кунидан кечиктирмаган ҳолда рухсатнома берилиши тўғрисида ёки ДХХ ва ИИВнинг (рад этилган ҳолатда) тегишли ҳулосалари асосида рад этиш асослари ва қонунчиликнинг аниқ нормаларини кўрсатган ҳолда ариза берувчига «Лицензия» АТ орқали хабарнома юборади.

Марказ рухсатномани анъанавий тарзда ариза берувчининг ўзига ёки почта хизмати орқали аризачи кўрсатган манзилга юборади.

Ариза қабул қилингандан сўнг ариза берувчи рухсатнома олишдан бош тортган ҳолларда, тўланган тўлов суммаси қайтарилмайди.

83. Расмийлаштирилган рухсатномалар ва улардаги маълумотлар «Ягона дарча» божхона ахборот тизимига Марказ масъул шахслари томонидан киритилади.

84. Транзит рухсатномасини бериш куйидаги сабабларга кўра рад этилиши мумкин:

а) ариза берувчи томонидан транзит рухсатномасини бериш учун зарур бўлган ҳужжатлар тўлиқ тақдим этилмаганда;

б) ариза берувчи транзит рухсатномасини бериш талаблари ва шартларига мос келмаганда;

в) ўрганиш натижаларига кўра ДХХ ёки ИИВнинг асослангандан рад этиш ҳулоаси ёки Агентликнинг рухсатнома бериш мумкин эмаслиги тўғрисидаги қарори тақдим этилганда;

г) ариза берувчи томонидан тақдим этилган ҳужжатларда аниқ бўлмаган ёки нотўғри маълумотлар мавжуд бўлганда.

Транзит рухсатномасини беришнинг бошқа асосларига кўра, шу жумладан, мақсадга мувофиқ эмас деган вазлар билан рад этилишига йўл қўйилмайди.

85. Транзит рухсатномани бериш рад этилган тақдирда, тўланган йиғим суммаси қайтарилмайди.

86. Аниқланган камчиликларни бартараф этиш учун Марказ ариза берувчига малакали ходимларни излашда, ҳужжатлар ҳамда дастурларни маромига етказиш учун мутахассисларни жалб этишда, шунингдек, бошқа муаммоларни вазиятларни бартараф этишда ёрдам кўрсатиши ва тавсиялар бериши шарт, ариза берувчи таклиф этилган ёрдамни рад этган ҳоллар бундан мустасно.

87. Ариза берувчи томонидан транзит рухсатномасини беришни рад этиш учун асос бўлган сабаблар бартараф этилган ҳолларда, Марказ томонидан ариза берувчининг аризаси келиб тушган кундан эътиборан беш иш кунидан ортиқ бўлмаган муддатда қайта кўриб чиқилади.

88. Транзитга рухсатнома бериш тўғрисидаги аризани қайта кўриб чиқишда, хабарномада аввал кўрсатилмаган сабабларга кўра транзит рухсатнома беришни рад этишга йўл қўйилмайди.

Ариза қайта кўриб чиқилгани учун қонунчилик ҳужжатларида белгиланган базавий ҳисоблаш миқдорининг бир баравари миқдорида йиғим ундирилади ҳамда ушбу Низомнинг 71-бандида назарда тутилган тартибда тақсимланади.

Давоми 5-бетда ▶

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
ҚАРОРИЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ПРЕКУРСОРЛАРНИНГ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФАОЛИЯТНИ
ТАРТИБГА СОЛИШ ВА УЗЛУКСИЗ НАЗОРАТНИ ТАЪМИНЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА◀**Давоми. Боши 1,2,3 ва 4 бетларда**

89. Ариза берувчи транзитга рухсатнома бериш рад этилгани, шунингдек, Марказ мансабдор шахсининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан белгиланган тартибда шикоят қилишга ҳақли.

90. Транзит рухсатномаси йўқолганда ёки яроксиз ҳолатга келганда, ариза берувчи «Лицензия» АТ орқали Марказга дубликат олиш учун ариза беради.

Марказ аризани уч иш кунидан ошмаган муддатда кўриб чиқиб, «Дубликат» белгиси қўйилган янги транзит рухсатномаси анъанавий тарзда ёки почта хизмати орқали ариза берувчига тақдим этади.

Транзит рухсатномасининг дубликати берилгани учун базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн фойзи миқдорида йиғим ундирилади ва ундирилган йиғим ушбу Низомнинг 71-бандида белгиланган тартибда тақсимланади.

91. Транзит рухсатномаси яроксиз ҳолатга келган ҳолда унинг асл нусхаси ҳам тақдим этилиши керак.

92. Транзит рухсатномасининг амал қилиш муддатини тўхтатиб туриш ёки тугатиш ва бекор қилиш Ўзбекистон Республикасининг «Лицензиялаш, рухсат бериш ва ҳабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги Қонунида назарда тутилган ҳолларда белгиланган тартибда амалга оширилади.

93. Рухсатномалар реестри «Лицензия» АТда электрон шаклда ҳар бир рухсатнома бўйича алоҳида юритилади ва ундаги маълумот барча учун очик ҳисобланади.

94. Рухсатномалар реестри автоматик равишда шакллантирилади, унинг доимий юритилиши ва унга тегишли ўзгартиришларни киритиш Марказ томонидан амалга оширилади.

Марказ рухсатномалар реестрини юритишда ушбу Низом ва бошқа қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибларга риоя қилиши лозим.

95. Марказ қуйидаги маълумотларни рухсатномалар реестрига ўз вақтида киритиб боришга жавобгар:

транзит рухсатномаси берилган сана ва тартиб рақами;

ариза берувчининг номи ва ташкилий ҳуқуқий шакли, юридик манзили, телефон рақами;

рухсатномада транзит ўтказилаётган прекурсорнинг номи ва миқдори;

транзит рухсатномасининг амал қилиш муддатини тўхтатиб туриш асоси ва санаси;

транзит рухсатномасининг амал қилиш муддатини тугатиш асоси ва санаси;

транзит рухсатномасининг бекор қилиш асоси ва санаси;

транзит рухсатномасининг дубликатини бериш асоси ва санаси;

транзит рухсатномасининг амал қилиш муддати.

96. Рухсатнома эгаси тўғрисидаги батафсил маълумотлар базаси ваколатли органлар фойдаланиши учун шакллантирилади ва унда рухсат бериш жараёнида киритиладиган барча маълумотлар ҳамда илова қилинадиган ҳужжатларнинг электрон нусхалари сақланади.

Ушбу маълумотлар базасида рухсатномалар реестрига киритилмаган ахборотлар мавжуд бўлган тақдирда, Марказ томонидан мазкур ахборотлар ва илова қилинган ҳужжатларни бошқа шахсларга ошкор қилиниши тақиқланади.

**7-БОБ. ПРЕКУРСОРЛАРНИ
ИШЛАБ ЧИҚАРИШ, ТАЙЁРЛАШ,
САҚЛАШ ВА ТАШИШ ТАРТИБИ**

97. Ўзбекистон Республикасида прекурсорларни ишлаб чиқариш, тайёрлаш, сақлаш ва ташиш билан боғлиқ фаолият амалдаги қонунчиликка мувофиқ белгилан-

ган талаб ва шартларга қатъий риоя қилган ҳолда амалга оширилади.

98. Лицензиатлар томонидан прекурсорларни ишлаб чиқариш, тайёрлаш ва сақлашга доир фаолиятда хавфсизликни таъминлаш учун бошқа шахсларнинг аралашувига йўл қўймаслик чоралари кўрилади.

99. Прекурсорларни ишлаб чиқарувчи, сотиб олувчи ва улардан якуний фойдаланувчи лицензиатлар ахборот тизимига прекурсорларга бўлган эҳтиёжи тўғрисидаги маълумотларини ҳамда ҳисоботларни мунтазам равишда киритиб боради.

Лицензиатлар ахборот тизимига маълумотлар тўғри ҳамда ўз вақтида киритилишида шахсан жавобгар ҳисобланади.

Иккинчи кичик рўйхатдаги сульфат ва хлорид кислоталарини ишлаб чиқариш ва тайёрлаш юридик шахслар томонидан уларда ушбу фаолият турига лицензиялари мавжуд бўлган тақдирда амалга оширилади.

100. Тез алангаланувчи ва учувчи прекурсорларни (сирка кислотаси ангидриди, ацетон, этил эфири, хлорид кислота, фенилсирка кислотаси, сульфат кислота, толуол ва бошқалар) сақланишида уларнинг физик-кимёвий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда зич ёпиладиган, чидамли (пишик) шиша ёки металл идишларда белгиланган тартибда сақланади.

101. Назорат-таҳлил лабораториялари, илмий-тадқиқот институтлари, дорихоналар, даволаш-профилактика муассасалари, олий таълим ташкилотларида прекурсорларни сақлаш қонунчиликда белгиланган тартиб асосида амалга оширилади.

102. Саноат корхоналарида прекурсорлар хавфлилик, ёнғин хавфини тўғдириш даражаси, кимёвий ва физик-кимёвий хоссаларига асосан сақланади.

Кислота бўлган прекурсорлар бошқа прекурсорлардан алоҳида сақланади.

Прекурсорларнинг ертўлаларда сақланишига йўл қўйилмайди ва прекурсорларнинг сақлаш жойларининг вентиляцияси табиий бўлиши шарт.

103. Прекурсорларни «Хавфсизлик паспорти» қоидаларига зид равишда ташиш тақиқланади.

**8-БОБ. ПРЕКУРСОРЛАРНИ
РЕАЛИЗАЦИЯ ҚИЛИШ
(БЕРИШ) ТАРТИБИ**

104. Прекурсорларни реализация қилиш вақтида харидор сотувчи томонга лицензиясини тақдим этиши шарт.

Бунда сотувчи томон «Лицензия» АТ орқали лицензиянинг фаоллигини текшириб олади ва эҳтиёж доирасида сотилган прекурсорлар миқдорини ахборот тизимига дарҳол киритади.

105. Сотувчи харидорга унинг прекурсорга бўлган йиллик эҳтиёжидан ортигини реализация қилмасликка, лицензиянинг фаоллигини текширишга ва ахборот тизимига маълумотларни тўғри ҳамда ўз вақтида киритилишига шахсан жавобгар ҳисобланади.

106. Реализация қилинган прекурсор узок масофа туфайли маълум бир муддатдан сўнг харидорга етиб келган тақдирда, харидор уни қабул қилиб ҳисобга олади ҳамда ахборот тизимига бу ҳақда тегишли белги қўяди.

**9-БОБ. ПРЕКУРСОРЛАРДАН
ФОЙДАЛАНИШДА ХАВФСИЗЛИК
ЧОРАЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИ
ЙЎҚ ҚИЛИШ ТАРТИБИ**

107. Прекурсорлардан фойдаланувчилар кимёвий моддаларни ишлаб чиқарувчи ва етказиб берувчилардан «Хавфсизлик паспорти»ни талаб қилишлари лозим.

108. Лицензиатлар прекурсорларни сақлаш, юклаш, ташиш ҳамда ундан фойдаланишда ишчи-ходимларнинг хавфсизли-

гини таъминлаш чораларини белгилаши ва тасдиқлаши шарт.

109. Фойдаланиш муддати ўтган ёки қайта ишлаш имконияти бўлмаган прекурсорларни сақлаш жойларида қолдириш ва фойдаланиш тақиқланади.

110. Прекурсорлар қуйидаги ҳолатларда йўқ қилинади:

уларнинг яроқлилиқ муддати тугаганда;

улардан фойдаланиш имкониятини истисно этувчи кимёвий ёки физик таъсирга учраганда;

прекурсорларга мансублигини аниқлашнинг имкони бўлмаган ҳолларда.

111. Прекурсорлар юридик шахслар томонидан уларда фаолиятнинг кўрсатиб ўтилган турига лицензияси мавжуд бўлган тақдирда йўқ қилинади.

112. Прекурсорларни йўқ қилиш учун лицензияга эга бўлган юридик шахслар ички ишлар органлари ҳамда Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси вакилларида иборат бўлган комиссия ташкил этадилар.

113. Прекурсорларни йўқ қилиш учун лицензияга эга бўлмаган, бироқ уларнинг муомалада бўлиши билан боғлиқ фаолиятни амалга оширувчи лицензиатлар прекурсорларни йўқ қилиш ҳукуқи бўйича лицензияга эга бўлган юридик шахслар билан шартномалар тузадилар ҳамда қабул қилиш-топириш далолатномасини расмийлаштирган ҳолда йўқ қилиниши керак бўлган прекурсорларни уларга топширадилар.

114. Прекурсорларни йўқ қилиш зарурати лицензиат раҳбарининг буйруғи билан тайинланган масъул шахс томонидан асосланади. Бунда прекурсорларни ҳисобдан чиқариш ва кейинчалик йўқ қилиш тўғрисида буйруқ чиқарилади.

Буйруқда қуйидаги маълумотлар кўрсатилади:

прекурсорларнинг номи, таркиби ва физик хоссалари, миқдори, маркировкаси;

прекурсорларнинг нетто ва брутто оғирлиги;

йўқ қилиш сабаблари;

йўқ қилиш учун масъул бўлган шахс;

йўқ қилиш жойи ва усули;

прекурсорларни йўқ қилиш учун лицензияга эга бўлмаган лицензиатлар прекурсорларни йўқ қилиш учун лицензияга эга бўлган корхона ёки муассаса билан тузилган шартноманинг тартиб рақамини ва унинг тузилган санасини кўрсатадилар.

115. Буйруқ нусхаси келишиш учун ҳудудий ички ишлар ҳамда экология ва иқлим ўзгариши органларига юборилади.

116. Прекурсорларни йўқ қилиш ишларини бажарувчи ходимлар прекурсорлар билан ишлаш тажрибасига эга бўлишлари, йўқ қилинаётган моддаларнинг физик-кимёвий ва захарли хоссаларини ҳамда зарарсизлантириш ва йўқ қилишда кечадиган кимёвий реакцияларни билишлари керак.

117. Техник кўрсаткичларга кўра саноат ишлаб чиқариши тармоқларида, лаборатория тадқиқотларида ва бошқаларида қўлланилмаган прекурсорлар «Хавфсизлик паспорти»га мувофиқ йўқ қилинади.

118. Прекурсорларни йўқ қилишда комиссия томонидан мазкур Низомга 8-иловага мувофиқ далолатнома тузилади ва унда қуйидагилар кўрсатилади:

далолатнома тузилган сана ва жой;

йўқ қилишда қатнашган шахсларнинг иш жойи, лавозими, фамилияси, исми, отасининг исми;

йўқ қилиш асослари;

йўқ қилинадиган прекурсорнинг номи, таркиби ва физик хоссалари, миқдори, маркировкаси кўрсатилган ҳолда, нетто ва брутто оғирлиги тўғрисидаги маълумотлар;

йўқ қилиш усули.

Далолатноманинг нусхалари сони прекурсорларни йўқ қилишда иштирок этган

томонлар сони билан белгиланади.

119. Йўқ қилиш тўғрисида қарор қабул қилинган прекурсорларни кейинчалик фойдаланиш учун бериш тақиқланади.

120. Лицензиат йўқ қилинган прекурсорлар миқдорини ахборот тизимига дарҳол киритади.

121. Прекурсорлар йўқ қилиниши учун лицензиатнинг раҳбари жавоб беради.

**10-БОБ. ЛИЦЕНЗИАТЛАР
ФАОЛИЯТИ МОНИТОРИНГИ ВА
УЛАРНИНГ ҲИСОБДОРЛИГИ**

122. Агентлик томонидан тузилган ва тасдиқланган мониторинг режасига кўра ишчи гуруҳлар томонидан лицензиатлар фаолиятида ўрганишлар ўтказилади.

Ахборот тизимидаги прекурсорлар айланмаси билан боғлиқ маълумотлар асосида Агентлик ўзи ёки унинг кўрсатмасига асосан Ички ишлар вазирилиги томонидан лицензиатлар фаолиятида қонунчиликда белгиланган тартибда назорат текширувлари ўтказилади.

Нazorat текширувлари натижаларига кўра фаолиятда аниқланган камчиликлар ва қонун бузилиши ҳолатлари бўйича лицензиатларга қонунчиликка мувофиқ белгиланган тартибда чоралар кўрилади.

123. Марказ лицензиатлар фаолияти устидан ахборот тизимига киритилган маълумотлар асосида қонунчиликда белгиланган тартибда назорат текширувлари ўтказилади.

124. Лицензиатлар ўзининг прекурсорлар муомаласига оид фаолияти бўйича ойлик ҳисоботларни юритиб (ишлаб чиқарилган, тайёрланган, олиб қиртилган ва олиб чиқилган, сотилган, фойдаланилган прекурсорлар, уларнинг миқдорлари ва бошқа), ҳисобот давридан кейинги ойнинг йиғирманчи санасидан кечиктирмасдан ахборот тизимига киритади.

125. Лицензиатлар қайта ташкил этилган ёки тугатилган тақдирда охириги ҳисоботлар тақдим қилинган вақтдан бошлаб ва қайта ташкил этилган ёки тугатилган вақтгача бўлган давр учун ҳисоботларни, шу жумладан, қайта ташкил этилган ва тугатилган кундаги ҳолатига кўра прекурсорларнинг захиралари тўғрисида маълумотлар тақдим этадилар.

126. Марказ киритилган ҳисоботлар асосида йиғма ҳисобот тузади ва Агентлик билан келишган ҳолда Халқаро қўмитага белгиланган тартиб ва шакл асосида ҳисобот тақдим этади.

127. Прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартиблар бузилган ҳолларда, лицензияловчи органнинг қарори асосида лицензиатнинг лицензияси уч ой муддатгача тўхтатиб турилиши мумкин.

11-БОБ. ЯКУНЛОВЧИ ҚОИДАЛАР

128. Ўзбекистон Республикасида муомалада бўлиши чекланган прекурсорлар рўйхатига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар Агентлик ва Марказнинг расмий веб-саҳифасида эълон қилинади.

129. Прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқиш, ишлаб чиқариш, тайёрлаш, сақлаш, реализация қилиш (бериш), ташиш, улардан фойдаланиш ва йўқ қилишда хавфсизлик талабларига риоя этилишини таъминлашда, маълумотлар ахборот тизимига киритилишида лицензиат раҳбари жавобгар ҳисобланади.

130. Ушбу Низом талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
ҚАРОРИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ПРЕКУРСОРЛАРНИНГ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФАОЛИЯТНИ
ТАРТИБГА СОЛИШ ВА УЗЛУКСИЗ НАЗОРАТНИ ТАЪМИНЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

◀ Давоми. Боши 1,2,3,4 ва 5-бетларда

Ўзбекистон Республикасида прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни
тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш тўғрисидаги ягона низомга
1-ИЛОВА

Прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқишга сертификат бериш

СХЕМАСИ

Боскич-лар	Субъект-лар	Тадбирлар	Ижро муддатлари
1-босқич	Ариза берувчи	Прекурсорларни олиб кириш, олиб чиқишга сертификат олиш учун керак бўладиган ҳужжатларни тайёрлайди ва «Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази» давлат муассасасига (кейинги ўринларда — Марказ) «Лицензия» ахборот тизими орқали юборади.	Ариза берувчининг хоҳишига қўра
2-босқич	Марказ	1. Марказ сертификатни расмийлаштириш учун керакли ҳужжатларни ариза берувчидан қабул қилиб олганидан сўнг бошқа ваколатли органлардан қуйидаги ҳужжатлар ва маълумотларни ўзаро ахборот ҳамкорлиги орқали электрон шаклда олади: а) дори воситаси таркибида прекурсор мавжуд бўлган ҳолларда ушбу дори воситаси учун берилган рўйхатдан ўтказиш гувоҳномасининг нусхаси; б) Соғлиқни сақлаш вазирлиги томонидан берилган прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолиятни амалга ошириш ҳукукини берувчи лицензиянинг нусхаси. 2. Марказ ҳужжатлар тўпламини ўрганади, келишиш учун «Лицензия» АТ орқали ДХХ ҳамда ИИВга юборади. 3. ДХХ ва ИИВ ҳужжатларни кўриб чиқиб, тегишли хулосасини Агентликка юборади. 4. Агентлик ҳужжатларни кўриб чиқиб, тегишли қарорни Марказга тақдим этади. 5. Агентлик қарори асосида Марказ ариза берувчига сертификат берилиши тўғрисида ёки ДХХ ва ИИВнинг (рад этилган ҳолатда) тегишли хулосалари асосида рад этиш асослари ва қонунчиликнинг аниқ нормаларини кўрсатган ҳолда ариза берувчига «Лицензия» АТ орқали хабарнома юборади. 6. Марказ сертификатни анъанавий тарзда ариза берувчининг ўзига ёки почта хизмати орқали аризачи кўрсатган манзилга юборади.	1-2. Ариза ва ҳужжатлар қабул қилинган кунда. 3. Ҳужжатлар қабул қилингандан сўнг биринчи кичик рўйхатдаги прекурсорлар бўйича ўн беш иш куни, иккинчи кичик рўйхатдаги прекурсорлар бўйича ўн иш кундан ортиқ бўлмаган муддатда. 4. Ҳужжатлар қабул қилингандан сўнг беш иш кундан ортиқ бўлмаган муддатда. 5-6. Тегишли қарор олингандан сўнг беш иш кундан ортиқ бўлмаган муддатда
3-босқич (зарур бўлганда)	Марказ	Ариза берувчи сертификат беришни рад этиш учун асос бўлган сабабларни бартараф этган ҳолларда, сертификат бериш учун ҳужжатларни қайта кўриб чиқади ёки сертификат беришни рад этади.	Ариза ва ҳужжатлар қабул қилингандан сўнг ўн иш кундан ортиқ бўлмаган муддатда

Ўзбекистон Республикасида прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни
тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш тўғрисидаги ягона низомга
2-ИЛОВА

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ

«ФАРМАЦЕВТИКА МАҲСУЛОТЛАРИ ХАВФСИЗЛИГИ МАРКАЗИ» ДАВЛАТ МУАССАСАСИ

ПРЕКУРСОРЛАРНИ ОЛИБ КИРИШ УЧУН

_____ – СОН СЕРТИФИКАТ

(бошқа юридик шахсга бермаслик шарти билан, нусхалари ҳақиқий эмас)

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 1988 йилдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний муомаласига қарши кураш тўғрисида»ги конвенциясида назарда тутилган моддаларга тегишли қонунларни қўллаш учун масъул бўлган «Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази» давлат муассасаси:

1. Олиб келинаётган прекурсор номи (оғирлиги/ҳажми) _____

2. Импорт қилувчи номи ва манзили _____

3. Экспорт қилувчи номи ва манзили _____

4. Юк қабул қилувчи _____

5. Юкнинг йўналиши, транспорт тури (экспорт қилувчи мамлакатдан чиқиш жойла-рини ва импорт қилувчи мамлакатга кириш жойларини кўрсатган ҳолда)

6. Юкни олиб келиш бир партияда амалга оширилади.

7. Олиб келишнинг режалаштирган санаси _____

8. Кўрсатилган моддалар: _____

_____ мақсадлари учун фойдаланилади.

Мазкур сертификатнинг амал қилиш муддати _____ 20__ й. « ____ » _____

Директор _____ 20__ й. « ____ » _____

(орқа томони)

STATE INSTITUTION «CENTER FOR PHARMACEUTICAL PRODUCTS SAFETY»
OF THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

CERTIFICATE № _____
on the import of substances
(provided that it is not given to another legal entity, the copy is not authentic)

This is to certify that State institution «Centre for pharmaceutical products safety» entrusted with the application of laws on substances and their derivatives envisaged by 1988 Convention of UN against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances permits the import:

1. Name of substances to be imported (weight/volume) _____

2. Name and address of importer _____

3. Name and address of exporter _____

4. Ultimate consignee _____

5. Route of the consignment, type of transport (indicate stations of exports and import) _____

6. The supplying will be carried out one bath. _____

7. Date supposed of import _____

8. Above-stated substances will be used in: _____

The certificate is valid up to _____ « ____ », 20__.

Director of the center _____ « ____ », 20__

Давоми 7 - бетда▶

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
ҚАРОРИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ПРЕКУРСОРЛАРНИНГ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФАОЛИЯТНИ
ТАРТИБГА СОЛИШ ВА УЗЛУКСИЗ НАЗОРАТНИ ТАЪМИНЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

◀ Давоми. Боши 1,2,3,4,5 ва 6-бетларда

Ўзбекистон Республикасида прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни
тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш тўғрисидаги ягона низомга

3-ИЛОВА

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
«ФАРМАЦЕВТИКА МАҲСУЛОТЛАРИ ХАВФСИЗЛИГИ МАРКАЗИ» ДАВЛАТ МУАССАСАСИ

ПРЕКУРСОРЛАРНИ ОЛИБ ЧИҚИШ УЧУН

_____ – СОН СЕРТИФИКАТ

(бошқа юридик шахсга бермаслик шарти билан, нусхалари ҳақиқий эмас)

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 1988 йилдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний муомаласига қарши кураш тўғрисида»ги конвенциясида назарда тутилган моддаларга тегишли қонунларни қўллаш учун масъул бўлган «Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази» давлат муассасаси:

- | | |
|--|--|
| 1. Олиб чиқиладиган прекурсор номи (оғирлиги/ҳажми) _____ | 6. Юкнинг йўналиши, транспорт тури (экспорт қилувчи мамлакатдан чиқиш жойла-
рини ва импорт қилувчи мамлакатга кириш жойларини кўрсатган ҳолда) _____ |
| 2. Экспорт қилувчи номи ва унинг манзили _____ | 7. Кўрсатилган моддалар мақсадлари учун фойдаланилади. _____ |
| 3. Импорт қилувчи номи ва унинг манзили _____ | Мазкур сертификатнинг амал қилиш муддати _____ «__», 20__ |
| 4. Юк қабул қилувчи _____ | Директор _____ 20__ й. «__» _____ |
| 5. Импорт қилувчи мамлакатнинг импорт рухсатномаси (берилган санаси) _____ | |

(орқа томони)

STATE INSTITUTION «CENTER FOR PHARMACEUTICAL PRODUCTS SAFETY» OF THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

CERTIFICATE № _____

on the export of substances
(provided that it is not given to another legal entity, the copy is not authentic)

This is to certify that State institution «Centre for pharmaceutical products safety» entrusted with the application of laws on substances and their derivatives envisaged by 1988 Convention of UN against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances permits the export:

- | | |
|--|--|
| 1. Name of substances to be exported (weight/volume) _____ | 6. Route of the consignment, type of transport (indicate stations of export and
import) _____ |
| 2. Name and address of exporter _____ | 7. Above-stated substances will be used in: _____ |
| 3. Name and address of importer _____ | The certificate is valid up to _____ «__», 20__ |
| 4. Ultimate consignee _____ | Director of the center _____ «__», 20__ |
| 5. Authorization of the importer country to import (date of issue) _____ | |

Ўзбекистон Республикасида прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни
тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш тўғрисидаги ягона низомга

4-ИЛОВА

Ўзбекистон Республикаси
Соғлиқни сақлаш вазирлиги
«Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази»
давлат муассасасига

Ушбу билан _____
(ариза берувчи номи, СТИРи, мамлакат номи, юридик манзили, тел./факс кўрсатилган ҳолда)
Сиздан олиб келинаётган (олиб чиқиладиган) _____

Олиб келинаётган (олиб чиқиладиган) _____
_____ учун ишлатилади.

(прекурсорларнинг фойдаланиш мақсади)

Юк _____
(йўналиш, транспорт тури, экспорт қилувчи мамлакатдан импорт қилув-
чи мамлакатга чиқиш-кириш нуқталарини кўрсатган маршрути билан)
(мўлжалланган олиб кириш, олиб чиқиш муддати)
_____ олиб келинади.

(етказиб бериш тартиби (бир партияди)

Шу билан бирга, импорт қилинадиган маҳсулотларни реэкспорт қилмаслик, прекур-
сорлар олиб кириладиганда эса, импорт қилинадиган моддаларни кимёвий қурол, ги-
ёҳвандлик моддалари ишлаб чиқариш ва бошқа тақиқланган мақсадларда ишлатмаслик
мажбуриятини оламин.

Масъул шахс Ф.И.О. ва имзоси

асосида олиб кириш (олиб чиқиш) сертификатини беришингизни сўраймиз.

М.Ў

Ўзбекистон Республикасида прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни
тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш тўғрисидаги ягона низомга

5-ИЛОВА

Прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали транзит тарзида ўтказишга рухсат бериш
СХЕМАСИ

Давоми 8 - бетда ▶

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
ҚАРОРИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ПРЕКУРСОРЛАРНИНГ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФАОЛИЯТНИ
ТАРТИБГА СОЛИШ ВА УЗЛУКСИЗ НАЗОРАТНИ ТАЪМИНЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

◀ Давоми. Боши 1,2, 3,4,5,6 ва 7-бетларда

Босқич-лар	Субъект-лар	Тадбирлар	Ижро муддатлари
1-босқич	Ариза берувчи	Прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали транзит тарзида ўтказишга рухсатнома олиш учун керак бўладиган ҳужжатларни тайёрлайди ва «Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази» давлат муассасасига (кейинги ўринларда — Марказ) «Лицензия» ахборот тизими орқали юборади.	Ариза берувчининг хоҳишига қўра
2-босқич	Марказ	1. Марказ ҳужжатлар тўпламини ўрганади, келишиш учун «Лицензия» АТ орқали ДХХ ҳамда ИИВга юборади. 2. ДХХ ва ИИВ ҳужжатларни кўриб чиқиб, тегишли хулосасини Агентликка юборади. 3. Агентлик ҳужжатларни кўриб чиқиб, тегишли қарорни Марказга тақдим этади 4. Агентлик қарори асосида Марказ ариза берувчига рухсатнома берилиши тўғрисида ёки ДХХ ва ИИВнинг (рад этилган ҳолатда) тегишли хулосалари асосида рад этиш асослари ва қонунчиликнинг аниқ нормаларини кўрсатган ҳолда ариза берувчига «Лицензия» АТ орқали хабарнома юборади. 5. Марказ рухсатномани аънавий тарзда аризачининг ўзига ёки почта хизмати орқали аризачи кўрсатган манзилга юборади.	1. Ариза ва ҳужжатлар қабул қилинган кунда. 2. Ҳужжат қабул қилингандан сўнг ўн иш кунидан ортиқ бўлмаган муддатда. 3. Ҳужжат қабул қилингандан сўнг беш иш кунидан ортиқ бўлмаган муддатда. 4-5. Тегишли қарор олингандан сўнг беш иш кунидан ортиқ бўлмаган муддатда
3-босқич (зарур бўлганда)	Марказ	Ариза берувчи транзит рухсатномасини беришни рад этиш учун асос бўлган сабабларни бартараф этган ҳолларда, ҳужжатларни қайта кўриб чиқади, транзит рухсатномасини беради ёки беришни рад этади.	Ариза ва ҳужжатлар қабул қилингандан сўнг беш иш кунидан ортиқ бўлмаган муддатда

Ўзбекистон Республикасида прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни
тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш тўғрисидаги ягона низомга
6-ИЛОВА

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ «ФАРМАЦЕВТИКА МАҲСУЛОТЛАРИ ХАВФСИЗЛИГИ МАРКАЗИ»
ДАВЛАТ МУАССАСАСИ

Прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали транзит тарзида ўтказишга
– СОН РУХСАТНОМА

«Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази» давлат муассасаси берилган аризани кўриб чиқиб, _____ га
(ташкилот номи ва унинг манзили)

куйидаги миқдордаги _____
(прекурсорлар номи)

_____ (миқдори)

_____ транзит ўтказишга рухсат этади.

_____ Юкнинг йўналиши, транспорт тури:

Мазкур рухсатноманинг амал қилиш муддати 20____ й. «____»

Директор

Берилган сана 20__ й. «____» _____

Ўзбекистон Республикасида прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни
тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш тўғрисидаги ягона низомга
7-ИЛОВА

Ўзбекистон Республикаси
Соғлиқни сақлаш вазирлиги
«Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази» давлат муассасасига

Ушбу билан _____ га
(импорт қилувчи ташкилот, юк жўнатувчи ва мамлакат номи, юридик манзили)

Сиздан _____
(прекурсорларнинг номи ва миқдори)

_____ учун
(контракт(шартнома) рақами ва санаси, юк жўнатувчи)

_____ етказиб берувчи номи, мамлакати, юридик манзили)

_____ асосида транзит рухсатномасини олишга рухсат беришингизни сўраймиз.

_____ учун ишлатилади.
(фойдаланиш мақсади)

_____ (йўналиш, транспорт тури, экспорт қилувчи мамлакатдан импорт қилувчи мамлакатга)

_____ чиқиш-кириш нуқталарини кўрсатган маршрути билан)

_____ (мўлжалланган олиб кириш, олиб чиқиш муддати)

_____ (етказиб бериш тартиби (бир партияда))

Масъул шахс Ф.И.О. ва имзоси
М.Ў.
Изох: ариза расмий бланкда расмийлаштирилади.

Ўзбекистон Республикасида прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолиятни
тартибга солиш ва узлуксиз назоратни таъминлаш тўғрисидаги ягона низомга
8-ИЛОВА

_____ «ТАСДИҚЛАЙМАН»
Раҳбар _____
(имзо)

м.ў. 20____ й. «____» _____

Прекурсорларни йўқ қилиш тўғрисида
ДАЛОЛАТНОМА
Комиссия (уч кишидан кам бўлмаган) таркиби

Комиссия аъзолари _____
(Ф.И.О., лавозими)

Далолатнома тузилган жой _____

Сана, ой, йил номи _____

Давоми 9 - бетда▶

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
ҚАРОРИЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA PREKURSORLARNING MUOMALASI BILAN BOGLIQ FAOLIYATNI
TARTIBGA SOLISH VA UZLUKSIZ NAZORATNI TA'MINLASH CHORA-TADBIRLARI TU'GRISIDA

← Давоми. Боши 1,2,3,4,5,6,7 ва 8-бетларда

(прекурсорнинг номи, таркиби ва физик хоссалари, миқдори, мар-
кировкаси кўрсатилган ҳолда, нетто ва брутто оғирлиги)

миқдори-

да

(ёзув билан)

қарори асосида

Ўққ қилиш усули:

Комиссия аъзоларининг имзоси:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA
PSIXOTROP MODDALAR MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI
YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 6-maydagi PF-73-son, "Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 14-iyuldagi PF-111-son va "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 3-noyabrdagi PF-207-son farmonlari ijrosini ta'minlash, shuningdek, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar muomalasini tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqish uchun sertifikat berish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o'tkazishga ruxsatnoma olish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni yo'q qilish tartibi to'g'risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi hududida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni tranzit o'tuvchi yo'lovchilarni davolash uchun tashish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom 5-ilovaga muvofiq;

Ilmiy va o'quv maqsadlarida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom 6-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi taqiqlangan giyohvandlik vositalarining ro'yxati (I ro'yxat) 7-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi cheklangan giyohvandlik vositalarining ro'yxati (II ro'yxat) 8-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi cheklangan psixotrop moddalarning ro'yxati (III ro'yxat) 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni olib kirish (olib chiqish) va tranzit tarzida o'tkazish uchun sertifikat (ruxsatnoma) "Litsenziya" axborot tizimi orqali berilishi yo'lga qo'yiladi;

giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni respublikaga olib kirilishidan (ishlab

chiqarilishidan) boshlab realizatsiya qilishgacha (qabul qilish, saqlash, iste'molchiga sotish va boshqa) bo'lgan barcha jarayonlarning uzluksiz elektron nazorati joriy etiladi;

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni insonparvarlik yordami yuki tariqasida olib kirishga (olib chiqishga) ruxsat berish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Bunda onkologik bemorlar foydalanishi uchun mo'ljallangan insonparvarlik yordami yukining yaroqlilik muddati olti oygacha qolgan bo'lsa ham, istisno tariqasida, olib kirilishi mumkin;

davolash-profilaktika muassasalarida giyohvandlik vositalarining iste'mol me'yorlari kardiolarohlik amaliyotlarida bir nafar be'morga 40 ampula doirasida belgilanadi.

3. Sog'liqni saqlash vazirligi (E. Adilov):

a) respublikada muomalasi cheklangan ro'yxatlarga kiritilgan, tarkibida giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalarining muomalasi jarayonlarini raqamlashtirishni qamrab oluvchi axborot tizimini ishlab chiqsin va 2027-yil 1-yanvardan ishga tushirsin.

Bunda:

mazkur tizim doirasida tarkibida giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan yangi dori vositalari to'g'risida dorixonalarni tezkorlik bilan elektron xabardor qilish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

ushbu axborot tizimi "Raqamli sog'liqni saqlash islohotlarini qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida ishlab chiqilayotgan Raqamli sog'liqni saqlash platformasi bilan integratsiya qilinadi hamda axborot tizimi ma'lumotlarni shakllantirish, yuritish va boshqarishda platformaning umumiy ma'lumotnoma va klassifikatorlaridan foydalaniladi;

tizim doirasida "xavfni tahlil qilish" imkoniyati yaratilib, "Yagona davlat nazorati" axborot tizimiga integratsiya qilinadi;

Sog'liqni saqlash vazirligining "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" davlat muassasasi mazkur axborot tizimini yuritish bo'yicha mas'ul hisoblanadi, "Davlat axborot tizimlar-

ini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator — "UZINFOCOM" MCNJ tizimini yaratish, qo'llab-quvvatlash, uning sifati va uzluksiz ishlab turishini ta'minlash bo'yicha operator etib belgilanadi;

axborot tizimini ishlab chiqish va ishga tushirish bilan bog'liq barcha xarajatlar Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

b) joriy yil yakuniga qadar giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning muomalasi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi litsenziyaga ega yuridik shaxslar uchun qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartirishlar mohiyatini yetkazish bo'yicha sayyor seminar mashg'ulotlarini o'tkazsin;

v) insonparvarlik yordami yuki tariqasida olib kiritilgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni, birinchi navbatda, ehtiyojmand bemorlar o'rtasida teng taqsimlash choralarini ko'rsin;

g) Ichki ishlar vazirligi (A. Tashpulatov) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida keng tushuntirishini ta'minlasin;

d) 2026-yil 1-oktabrga qadar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasining tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud bo'lgan dori vositalari va psixotrop moddalar muomalasini nazorat qilish bo'yicha elektron platformasi orqali ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'ysin.

4. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 10-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 11-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

6. Manfaatdor vazirlik va idoralar uch oy muddatda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tgach kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi direktori va zifasini vaqtincha bajaruvchi F.F. Xasanov hamda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri E.E. Adilov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri

A. ARIPOV

Toshkent sh.,

2026-yil 2-iyul, 359-son

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 2-iyuldagi 359-son qaroriga
1-ИЛОБАGiyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqish uchun sertifikat berish tartibi to'g'risida
NIZOM

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar (keyingi o'rinlarda — giyohvandlik vositalari) ustidan davlat nazorati choralarini kuchaytirish maqsadida ularni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqishda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni (keyingi o'rinlarda — sertifikat) berish tartibini belgilaydi.

2. Giyohvandlik vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqishga sertifikatni rasmiylashtirish uchun "Litsenziya" axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — "Litsenziya" AT) orqali ariza beriladi, ariza O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati (keyingi o'rinlarda — DXX) hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (keyingi o'rinlarda — IIV) bilan kelishilgandan so'ng O'zbekiston Respub-

likasi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligining (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tegishli qaroriga asosan mazkur Nizomga 1-ilovadagi sxemaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" davlat muassasasi (keyingi o'rinlarda — Markaz) tomonidan beriladi.

3. Giyohvandlik vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va O'z-

bekiston Respublikasi hududidan olib chiqish giyohvandlik vositalarining muomalasi bilan bog'liq faoliyat uchun litsenziyaga ega yuridik shaxslar (keyingi o'rinlarda — ariza beruvchi) tomonidan mazkur Nizomga 2 — 5-ilovalarga muvofiq shakldagi qat'iy hisobda turuvchi, pushti rangli maxsus blanklarda rasmiylashtirilgan sertifikatlar asosida amalga oshiriladi.

Давоми 10 - бетда ►

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR
MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

←Давоми. Боши 9-бетда

4. Sertifikatdan faqat bir marta foydalaniladi va uning amal qilish muddati bir yilni tashkil qiladi.

Sertifikat ariza beruvchiga ikki nusxada, shundan bir nusxasi eksport qiluvchi tashkilotga taqdim etish uchun beriladi.

Berilgan sertifikat nazorat qilinadigan moddalarning muomalasi bilan bog'liq litsenziyaga ega bo'lishidan qat'i nazar, boshqa yuridik shaxsga berilishi mumkin emas.

5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi giyohvandlik vositalarining haqiqiy olib kirilgani (olib chiqilgani) to'g'risidagi ma'lumotni yuk chegaradan kesib o'tgan vaqtning o'zida onlayn vaqt rejimida Agentlik hamda Markazga taqdim etadi.

6. Respublika hududiga import qilingan giyohvandlik vositalari reeksport qilinmaydi.

7. Giyohvandlik vositalarini pochta va kuryerlik jo'natmalarida jo'natish taqiqlanadi, ekspertlik va tezkor-qidiruv faoliyatida foydalanish hamda tarkibida giyohvandlik vositalarini saqlovchi dori vositalarini O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun namuna sifatida yuborish holatlari bundan mustasno.

Giyohvandlik vositalaridan ichki ishlar organlari, DXX hamda bojxona organlarining ekspertiza va tezkor-qidiruv faoliyatida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazi hamda Adliya vazirligining sud-ekspertiza muassasalari faoliyatida litsenziya olmasdan foydalaniladi.

**2-BOB. RUXSAT BERISHGA
DOIR TALAB VA SHARTLAR**

8. Giyohvandlik vositalarini olib kirish, olib chiqishga ruxsat berish uchun sertifikat olish talablari va shartlariga quyidagilar kiradi:

ariza beruvchida giyohvandlik vositalari muomalasi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning mavjudligi;

giyohvandlik vositalarini olib kirish va olib chiqishda qonunchilik hujjatlariga majburiy rioya qilinishi;

sertifikatni olish uchun taqdim etiladigan ma'lumotlarning ishonchililigini ta'minlash;

ariza beruvchi tashkilotning nomi yoki manzili (pochta va/yoki faoliyat manzili) o'zgargan taqdirda, qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng o'n ish kuni ichida Markazga "Litsenziya" ATdagi shaxsiy kabineti orqali murojaat qilish.

**3-BOB. SERTIFIKAT
OLISH UCHUN TAQDIM
QILINADIGAN HUJJATLAR**

9. Sertifikat olish uchun ariza beruvchi tomonidan "Litsenziya" ATdagi shaxsiy kabineti orqali quyidagi hujjatlar Markazga taqdim etiladi:

a) ariza beruvchining mazkur Nizomga 6-ilovaga muvofiq arizasi;

b) giyohvandlik vositalarini olib kirish yoki olib chiqish uchun shartnoma nusxasi (to'lov uchun hisob);

v) O'zbekiston Respublikasi hududidan giyohvandlik vositalarini olib chiqishda — import qiluvchi davlatning olib kirishga ruxsat beruvchi hujjati (sertifikat, ruxsatnoma, olib kirish uchun litsenziya yoki boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar);

g) ariza beruvchi sertifikatni Markaz yoki pochta orqali qabul qilishni tanlaydi.

10. Arizani ko'rib chiqish va sertifikatni rasmiylashtirish uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining sakkiz baravari miqdorida yig'im

undiriladi.

Yig'im to'langani axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali tasdiqlanadi.

Yig'im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi, agarda pasportlarning 6-bandida boshqacha taqsimot nazarda tutilmagan taqdirda:

10 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga;

0,5 foizi — Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko'rsatgani uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga;

qolgan mablag'lar — Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish tizimini rivojlantirish respublika jamg'armasiga va Markazning tegishli bank hisobvaraqlariga teng miqdorda o'tkaziladi.

11. Arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

a) ariza beruvchining nomi va joylashgan manzili, ishlab chiqaruvchi va yukni qabul qiluvchining, shuningdek, import qiluvchining nomi va joylashgan manzili (olib chiqish faoliyati amalga oshirilganda);

b) ro'yxatda ko'rsatilgan giyohvandlik vositalarining nomi, TIF TN kodi, giyohvandlik vositalarining xalqaro patentlanmagan nomi, agar u mavjud bo'lsa yoki u birinchi qanday nom bilan chiqarilgan yoki chiqarilayotgan bo'lsa;

v) giyohvandlik vositalarining dori shakli (agar ular dori vositalari hisoblansa);

g) giyohvandlik vositalarining muayyan partiyadagi miqdori (ehtiyoj doirasida);

d) giyohvandlik vositalari olib kiriladigan va olib chiqiladigan davlat nomi;

e) giyohvandlik vositalarini olib kirish, olib chiqish joyi va muddati;

j) giyohvandlik vositalarini olib kirish, olib chiqish maqsadlari;

z) giyohvandlik vositalarini olib kirish, olib chiqish uchun mo'ljallangan transport turi yoki ularni jo'natish usullari.

12. Markaz sertifikatni rasmiylashtirish uchun kerakli hujjatlarni ariza beruvchidan qabul qilib olganidan so'ng boshqa vakolatli organlardan quyidagi hujjatlar va ma'lumotlarni o'zaro axborot hamkorligi orqali elektron shaklda oladi:

a) dori vositasi tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud bo'lgan hollarda, ushbu dori vositasi uchun berilgan ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasining nusxasi;

b) Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan giyohvandlik vositalari muomalasi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning nusxasi.

13. Ariza beruvchidan ushbu Nizomning 9-bandida nazarda tutilmagan hujjatlarni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

**4-BOB. ARIZANI KO'RIB CHIQISH,
SERTIFIKAT BERISH YOKI
SERTIFIKAT BERISHNI RAD ETISH**

14. Markaz arizani qabul qilingan kundan boshlab o'ttiz ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqib, sertifikat beradi yoki sertifikat berishni rad etadi.

15. Markaz hujjatlar to'plamini o'rganadi va mazkur Nizomning 9 va 12-bandlarida keltirilgan hujjatlar to'plamini kelishish uchun "Litsenziya" AT orqali DXX hamda IIVga yuboradi.

16. DXX va IIV hujjatlarni yigirma ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqib, tegishli xulosasini Agentlikka yuboradi.

17. Agentlik hujjatlarni besh ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqib, te-

gishli qarorni Markazga taqdim etadi.

18. Agentlik qarori asosida Markaz ariza beruvchiga besh ish kunidan kechiktirmagan holda sertifikat berilishi to'g'risida yoki DXX va IIVning (rad etilgan holatda) tegishli xulosalari asosida rad etish asoslari va qonunchilikning aniq normalarini ko'rsatgan holda ariza beruvchiga xabarnoma yuboradi.

Markaz sertifikatni an'anaviy tarzda ariza beruvchining o'ziga yoki pochta xizmati orqali ariza beruvchi ko'rsatgan manzilga yuboradi.

Ariza qabul qilingandan so'ng ariza beruvchi sertifikat olishdan bosh tortgan hollarda, to'langan to'lov summasi qaytarilmaydi.

19. O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan giyohvandlik vositalarini bojxona omborlariga joylashtirishga Markaz tomonidan olib kirish uchun berilgan sertifikatning mavjudligi asos bo'ladi.

20. Rasmiylashtirilgan sertifikatlar va ulardagi ma'lumotlar "Yagona darcha" bojxona axborot tizimiga Markaz mas'ul shaxslari tomonidan kiritiladi.

21. Sertifikatning berilishi quyidagi sabablarga ko'ra rad etilishi mumkin:

a) ariza beruvchi tomonidan sertifikat olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar to'liq taqdim etilmaganda;

b) ariza beruvchi ruxsat berish tartib-taomillariga mos kelmaganda;

v) o'rganish natijalariga ko'ra DXX yoki IIVning asoslantirilgan rad etish xulosasi yoki Agentlikning sertifikat berish mumkin emasligi to'g'risidagi qarori taqdim etilganda;

g) ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda shubhali yoki noto'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lganda.

22. Sertifikat berishni boshqa asoslariga ko'ra, shu jumladan, maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sertifikat berish rad etilgan hollarda, to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

23. Ariza beruvchi sertifikat berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablarni bartaraf etgan taqdirda, ularni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar va rad etish sabablarini bartaraf etish to'g'risidagi ariza Markaz tomonidan o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda qayta ko'rib chiqiladi.

24. Sertifikat berish to'g'risidagi arizani qayta ko'rib chiqish jarayonida xabarnomada oldin ko'rsatilmagan sabablarni vaj qilgan holda sertifikat berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Ariza qayta ko'rib chiqilgani uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig'im undiriladi hamda ushbu Nizomning 10-bandida nazarda tutilgan tartibda taqsimlanadi.

25. Ariza beruvchi Markazning mansabdor shaxslari harakatlari (harakatsizligi) hamda sertifikat berishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

**5-BOB. SERTIFIKAT
DUBLIKATINI BERISH**

26. Sertifikat yo'qolganda yoki yaroqsiz holatga kelganda, ariza beruvchi "Litsenziya" AT orqali Markazga dublikat olish uchun ariza beradi.

Markaz arizani besh ish kunidan oshmagan muddatda ko'rib chiqib, "Dublikat" belgisi qo'yilgan yangi sertifikatni an'anaviy tarzda yoki pochta xizmati orqali ariza beruvchiga taqdim etadi.

Sertifikatning dublikati berilgani uchun bazaviy hisoblash miqdorining o'n foizi miqdorida yig'im undiriladi va undirilgan yig'im ushbu nizomning 10-bandida belgi-

langan tartibda taqsimlanadi.

27. Sertifikat yaroqsiz holatga kelgan holda uning asl nusxasi ham Markazga taqdim etilishi kerak.

**6-BOB. BERILGAN
SERTIFIKATLAR REYESTRI**

28. Sertifikatlar reyestri "Litsenziya" ATda elektron shaklda har bir sertifikat bo'yicha alohida yuritiladi va undagi ma'lumot barcha uchun ochiq hisoblanadi.

29. Sertifikatlar reyestri avtomatik ravishda shakllantiriladi, uning doimiy yuritilishi va unga tegishli o'zgartirishlarni kiritish Markaz tomonidan amalga oshiriladi.

Markaz sertifikatlar reyestrini yuritishda ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartiblarga rioya qilishi lozim.

30. Markaz quyidagi ma'lumotlarni sertifikatlar reyestriga o'z vaqtida kiritib borishga javobgar:

sertifikat berilgan sana va sertifikat raqami;

ariza beruvchining nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, pochta manzili va telefon raqami;

sertifikatda olib kirilayotgan, olib chiqilayotgan giyohvandlik vositasining nomi va miqdori;

sertifikatning amal qilish muddati;

sertifikatni to'xtatib turish asosi va sanasi;

sertifikatning amal qilish muddatini tugatish asosi va sanasi;

sertifikatni bekor qilish asosi va sanasi;

sertifikat dublikatini berish asosi va sanasi.

31. Sertifikat egasi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar bazasi vakolatli organlar foydalanishi uchun shakllantiriladi va unda ruxsat berish jarayonida kiritiladigan barcha ma'lumotlar hamda ilova qilinadigan hujjatlarning elektron nusxalari saqlanadi.

Ushbu ma'lumotlar bazasida sertifikatlar reyestriga kiritilmagan axborotlar mavjud bo'lgan taqdirda, Markaz tomonidan mazkur axborotlar va ilova qilingan hujjatlarning boshqa shaxslarga oshkor qilinishi taqiqlanadi.

7-bob. Giyohvandlik vositalarini insonparvarlik yordami yuklari tariqasida olib kirish, olib chiqishga ruxsatnoma berish

32. Vazirlar Mahkamasining xulosasi asosida Markaz tomonidan giyohvandlik vositalarining insonparvarlik yordami yuklari tariqasida olib kirish, olib chiqishga ruxsatnoma beriladi.

33. Yaroqlilik muddati o'n ikki oydan kam bo'lgan insonparvarlik yordami yukini olib kirish, olib chiqish taqiqlanadi. Onkologik bemorlar foydalanishi uchun mo'ljallangan insonparvalik yordami yuklarining yaroqlilik muddati o'n ikki oydan olti oygacha qolgan bo'lsa, istisno tariqasida, ularning olib kirilishiga ruxsat beriladi.

34. Insonparvarlik yordami yukini qabul qiluvchi (ariza beruvchi) ruxsatnoma olish uchun "Litsenziya" AT orqali Markazga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) ariza beruvchining quyidagi ma'lumotlarni aks ettirgan mazkur Nizomga 7-ilovaga muvofiq arizasi;

insonparvalik yordami yukining O'zbekiston Respublikasiga olib kirayotgan donorning niza, yuridik manzili;

insonparvarlik yordami yukini qabul qiluvchining nomi, yuridik manzili;

insonparvalik yordami yukining xalqaro patentlanmagan nomi agar mavjud bo'lsa yoxud giyohvandlik vositasining ishlab chiqarilgan nomi, dori shakli va uning miqdori ko'rsatilgan holda;

olib kirish maqsadi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR
MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

←**Давоми. Боши 9 ва 10-бетларда**

tashiladigan transport turi;

b) ariza beruvchiga Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan giyohvandlik vositalari muomalasi bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya nuxsasi;

v) yukni insonparvalik yordamiga mansubligi to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasi xulosasi nuxsasi;

g) insonparvalik yordami yukining kuza-tuv hujjatlari nusxalari (invoys, yuk xati).

35. Insonparvalik yordami yuklarini olib

kirish, olib chiqish uchun ruxsatnomalarni rasmiylashtirishda ariza beruvchidan yig‘im undirilmaydi.

36. Insonparvalik yordami yukini olib kirish/olib chiqishga ruxsatnoma berish to‘g‘risidagi ariza hujjatlar qabul qilingandan so‘ng Markaz tomonidan besh ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi va ariza beruvchiga ruxsatnoma berilishi to‘g‘risida “Litsenziya” AT orqali xabarnoma yuboriladi.

Markaz ushbu Nizomga 8-ilovaga muvofiq rasmiylashtirilgan ruxsatnomani an‘anaviy tarzda ariza beruvchining o‘ziga yoki pochta xizmati orqali ariza beruvchi

ko‘rsatgan manzilga yuboradi.

37. Markaz tomonidan insonparvalik yordami yuklarini olib kirish/olib chiqish uchun ruxsatnoma berish yoki ruxsatnoma berishni asoslantirilgan holda rad etish ishning rasman yakunlanishi hisoblanadi.

38. Ruxsatnomaning berilishi quyidagi sabablarga ko‘ra rad etilishi mumkin:

a) ariza beruvchi tomonidan ruxsatnoma olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar to‘liq taqdim etilmaganda;

b) ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda shubhali yoki noto‘g‘ri

ma’lumotlar mavjud bo‘lganda.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

39. Sertifikatning amal qilish muddatini to‘xtatib turish yoki tugatish va bekor qilish O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonunida nazarda tutilgan hollarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

40. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqish
uchun sertifikat berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
1-ИЛОВА

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqishga sertifikat berish

SXEMASI

Bosqich-lar	Subyekt-lar	Tadbirlar	Ijro muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni (keyingi o‘rinlarda — giyohvandlik vositalari) olib kirish, olib chiqishga sertifikat olish uchun kerak bo‘ladigan hujjatlarni tayyorlaydi va “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasiga (keyingi o‘rinlarda — Markaz) “Litsenziya” AT orqali yuboradi.	Ariza beruvchining xohishiga ko‘ra
2-bosqich	Markaz	1. Markaz sertifikatni rasmiylashtirish uchun kerakli hujjatlarni ariza beruvchidan qabul qilib olganidan so‘ng boshqa vakolatli organlardan quyidagi hujjatlar va ma’lumotlarni o‘zaro axborot hamkorligi orqali elektron shaklda oladi: a) dori vositasi tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud bo‘lgan hollarda, ushbu dori vositasi uchun berilgan ro‘yxatdan o‘tkazish guvoohnomasining nuxsasi; b) Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan giyohvandlik vositalari muomalasi bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning nuxsasi. 2. Markaz hujjatlar to‘plamini o‘rganadi va kelishish uchun “Litsenziya” AT orqali DXX hamda IIVga yuboradi. 3. DXX va IIV hujjatlarni ko‘rib chiqib, tegishli xulosasini Agentlikka yuboradi. 4. Agentlik hujjatlarni ko‘rib chiqib, tegishli qarorni Markazga taqdim etadi. 5. Agentlik qarori asosida Markaz ariza beruvchiga sertifikat berilishi to‘g‘risida yoki DXX va IIVning (rad etilgan holatda) tegishli xulosalari asosida rad etish asoslari va qonunchilikning aniq normalarini ko‘rsatgan holda ariza beruvchiga “Litsenziya” AT orqali xabarnoma yuboradi. 6. Markaz sertifikatni an‘anaviy tarzda ariza beruvchining o‘ziga yoki pochta xizmati orqali ariza beruvchi ko‘rsatgan manzilga yuboradi.	1-2. Ariza va hujjatlar qabul qilingan kunda 3. Hujjatlar qabul qilingandan so‘ng yigirma ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda 4. Hujjatlar qabul qilingandan so‘ng besh ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda 5-6. Tegishli qaror olingandan so‘ng besh ish kundan ortiq bo‘lmagan muddatda
3-bosqich (zarur bo‘lganda)	Markaz	Ariza beruvchi sertifikat berishni rad etish uchun asos bo‘lgan sabablarni bartaraf etgan hollarda, sertifikat berish uchun hujjatlarni qayta ko‘rib chiqadi yoki sertifikat berishni rad etadi.	Ariza va hujjatlar qabul qilingandan so‘ng o‘n ish kundan ortiq bo‘lmagan muddatda

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqish
uchun sertifikat berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ИЛОВА

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING
“FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGI MARKAZI” DAVLAT MUASSASASI

GIYOHVANDLIK VOSITALARINI OLIB KIRISH UCHUN
-SON SERTIFIKAT

(boshqa yuridik shaxsga bermaslik sharti bilan, nusxalari haqiqiy emas)

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961-yildagi Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi yagona konvensiyasida nazarda tutilgan giyohvandlik vositalari va ularning hosilalari haqidagi tegishli qonunlarni qo‘llash uchun mas’ul bo‘lgan “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasi:

(import qiluvchi tashkilot nomi va uning manzili)		olib kelishga ruxsat etadi. Sertifikatda ko‘rsatilgan giyohvandlik vositalari:
ga O‘zbekiston Respublikasiga		maqsadlari uchun foydalaniladi.
(eksport qiluvchi tashkilot nomi va uning manzili)		Mazkur sertifikatning amal qilish muddati 20__ y. “__” _____
dan quyidagi giyohvandlik vositalarini (xalqaro patentlanmagan nomi, dori shakli, dozasi, miqdori):		Markaz direktori 20__ y. “__” _____

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR
MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Давоми. Боши 9, 10 ва 11-бетларда

(orqa tomoni)

STATE INSTITUTION "CENTER FOR PHARMACEUTICAL PRODUCTS SAFETY"
OF THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTANCERTIFICATE №
on the import of narcotics

(provided that it is not given to another legal entity, the copy is not authentic)

This is to certify that State institution "Centre for pharmaceutical products safety" entrusted with the application of laws on narcotics and their derivatives envisaged by 1961 UN Single Convention on Narcotics permits:

(name and address importer)

import in Republic of Uzbekistan from

Above-stated narcotics are to be used in:

(name and address exporter)

The certificate is valid up to " ", 20

undermentioned narcotics (international nonproprietary name, pharmaceutical name, dosage, number):

Director of the center
" ", 20Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqish
uchun sertifikat berish tartibi to'g'risidagi nizomga
3-ИЛОБАO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING
"FARMATSEV'TIKA MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGI MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI,
PSIXOTROP MODDALARNI OLIB KIRISH UCHUN
-SON SERTIFIKAT

(boshqa yuridik shaxsga bermaslik sharti bilan, nusxalari haqiqiy emas),

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1971-yildagi Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiyasida nazarda tutilgan psixotrop moddalar va ularning hosilalari to'g'risidagi tegishli qonunlarni qo'llash uchun mas'ul bo'lgan "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" davlat muassasasi:

(import qiluvchi tashkilot nomi va uning manzili)

maqsadlari uchun
foydalaniladi.,

O'zbekiston Respublikasiga

(import qiluvchi tashkilot nomi va uning manzili)

Mazkur sertifikatning amal qilish muddati, 20 y. " " dan

psixotrop moddalar saqlagan quyidagi dori vositalarini (xalqaro patentlanmagan nomi, dori shakli, dozasi, miqdori):

Markaz direktori,

Sertifikatda ko'rsatilgan psixotrop moddalar: olib kelishga ruxsat etadi.

20 y. " " ,

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqish
uchun sertifikat berish tartibi to'g'risidagi nizomga
4-ИЛОБАO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING
"FARMATSEV'TIKA MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGI MARKAZI" DAVLAT MUASSASASIGIYOHVANDLIK VOSITALARINI OLIB CHIQISH UCHUN
-SON SERTIFIKAT

(boshqa yuridik shaxsga bermaslik sharti bilan, nusxalari haqiqiy emas)

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961-yildagi Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi yagona konvensiyasida nazarda tutilgan giyohvandlik vositalari va ularning hosilalari to'g'risidagi tegishli qonunlarni qo'llash uchun mas'ul bo'lgan "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" davlat muassasasi:

(eksport qiluvchi tashkilot nomi va uning manzili)

olib chiqilishiga ruxsat etadi.
Sertifikatda ko'rsatilgan giyohvandlik vositalari:maqsadlari uchun
foydalaniladi.,

Mazkur sertifikatning amal qilish muddati, 20 y. " " dan

Markaz direktori,

20 y. " " ,

ga,
quyidagi giyohvandlik vositalarini (xalqaro patentlanmagan nomi, dori shakli, dozasi, miqdori):

import qiluvchi mamlakatning import ruxsatnomasi asosida (berilgan sanasi)

Давоми 13 - бетда

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR
MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

←Давоми. Боши 9, 10, 11 ва 12-бетларда

(orqa tomoni),

STATE INSTITUTION “CENTER FOR PHARMACEUTICAL PRODUCTS SAFETY”
OF THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN,

CERTIFICATE № _____

on the export of narcotics

(provided that it is not given to another legal entity, the copy is not authentic),

This is to certify that State institution “Centre for pharmaceutical products safety” entrusted with the application of laws on narcotics and their derivatives envisaged by 1961 UN Single Convention on narcotics permits:

(name and address exporter),

to export from the Republic of Uzbekistan in,

(name and address of importer),

under mentioned narcotics (international nonproprietary name, pharmaceutical name, dosage, number):,

authorization to import of the importer country (date of issue),

Above-stated narcotics will be used in: _____
The certificate is valid up to _____ “____” 20____

Director of the center,

_____, 20____, “____”

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqish
uchun sertifikat berish tartibi to'g'risidagi nizamga
5-ИЛОВА

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING

“FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGI MARKAZI” DAVLAT MUASSASASI

PSIXOTROP MODDALARNI OLIB CHIQISH UCHUN

_____-SON CERTIFIKAT,

(boshqa yuridik shaxsga bermaslik sharti bilan, nusxalari haqiqiy emas)

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1971-yildagi Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiyasida nazarda tutilgan psixotrop moddalar va ularning hosilalari haqidagi tegishli qonunlarni qo'llash uchun mas'ul bo'lgan “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasi:

(eksport qiluvchi tashkilot nomi va uning manzili),

_____, dan,

O'zbekiston Respublikasidan _____

(import qiluvchi tashkilot nomi va uning manzili),

psixotrop moddalar saqlagan quyidagi dori vositalarini (xalqaro patentlanmagan nomi, dori shakli, dozasi, miqdori):,

import qiluvchi mamlakatning import ruxsatnomasi asosida (berilgan sanasi)

olib chiqilishiga ruxsat etadi.
Sertifikatda ko'rsatilgan psixotrop moddalar: _____
_____ maqsadlari uchun foydalaniladi.

_____,
Mazkur sertifikatning amal qilish muddati, 20____ y. “____” _____

Markaz direktori,

20____ y. “____” _____,

(orqa tomoni),

STATE INSTITUTION “CENTER FOR PHARMACEUTICAL PRODUCTS SAFETY”
OF THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

CERTIFICATE № _____,

on the export of psychotropic agents

(provided that it is not given to another legal entity, the copy is not authentic)

This is to certify that State institution “Centre for pharmaceutical products safety” entrusted with the application of laws on psychotropic agents and their derivatives envisaged by 1971 UN Convention on psychotropic agents permits:

_____,
(name and address of exporter),

to export from Republic of Uzbekistan in

_____,
(name and address of importer),

under mentioned medicines containing psychotropic agents (international nonproprietary name, pharmaceutical name, dosage, number):

authorization to import of the importer country (date of issue)

Above-stated psychotropic agents will be used in:

_____,
The certificate is valid up to _____ “____”, 20____

Director of the center,

_____, 20____, “____”

Давоми 14- бетда►

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR
MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

←Давоми. Боши 9,10,11,12 ва 13-бетларда

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqish
uchun sertifikat berish tartibi to'g'risidagi nizomga
6-ИЛОБА

„O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligining
“Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi”
davlat muassasasiga

”
Ushbu bilan _____
(ariza beruvchi nomi, STIR, mamlakat nomi, yuridik manzili, tel./faks ko'rsatilgan holda),,

Sizdan olib kelinayotgan (olib chiqilayotgan) _____
(giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning,

_____ xalqaro patentlanmagan nomini ko'rsatgan holda dori shakli, dozasi, miqdori)

_____ (kontrakt (shartnoma) raqami va sanasi, ishlab chiqaruvchi nomi
_____ yuk jo'natuvchi, yuk yetkazib beruvchi nomi, mamlakati, yuridik manzili, tel./faks),,

asosida olib kirish (olib chiqish) sertifikatini berishingizni so'raymiz.
Olib kelinayotgan (olib chiqilayotgan) _____ uchun
ishlatiladi,,
(giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning foydalanish maqsadi),,

Yuk _____
(yo'nalish, transport turi, eksport qiluvchi mamlakatdan import qiluvchi mamlakatga),

_____ chiqish-kirish nuqtalarini ko'rsatgan marshruti bilan),,

_____ (mo'ljallangan olib kirish, olib chiqish muddati),,

olib kelinadi,,
(yetkazib berish tartibi (bir partiyada)),,

Shu bilan birga, import qilinadigan mahsulotlarni reeksport qilmaslik majburiyatini olamiz.,,
Mas'ul shaxs F.I.O. va imzosi,,
M.O'.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqish
uchun sertifikat berish tartibi to'g'risidagi nizomga
7-ИЛОБА

„O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi
markazi” davlat muassasasiga

Ushbu bilan _____
(ariza beruvchi nomi, STIR, mamlakat nomi, yuridik manzili, tel./faks ko'rsatilgan holda)

Sizdan _____
(giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning

_____ xalqaro patentlanmagan nomini ko'rsatgan holda dori shakli, dozasi, miqdori)

_____ (ishlab chiqaruvchi nomi, yuk jo'natuvchi, yuk yetkazib beruvchi nomi, mamlakati, yuridik manzili, tel./faks)

_____ insonparvarlik
yordami yukini
olib kirish (olib chiqish) ruxsatnomasini berishingizni so'raymiz.

Olib kelinayotgan (olib chiqilayotgan) insonparvarlik yordami yukidan _____ uchun
foydalaniladi.
(foydalanish maqsadi),,

Yuk _____
olib kelinadi
(transport turi),,

Mas'ul shaxs F.I.O. va imzosi _____ M.O'.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirish, olib chiqish
uchun sertifikat berish tartibi to'g'risidagi nizomga
8-ИЛОБА

INSONPARVARLIK YORDAMI YUKLARINI OLIB KIRISH/OLIB CHIQISH UCHUN
_____-SON RUXSATNOMA

Sog'liqni saqlash vazirligining “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat
muassasasi ruxsat etadi:

_____ (import qiluvchi tashkilot nomi va manzili)
_____ ga

O'zbekiston Respublikasiga _____
(eksport qiluvchi tashkilot nomi va manzili)

tashkilotidan quyidagi dori vositalari olib kelinadi:
(xalqaro patentlanmagan nomi, dori shakli, dozasi, miqdori)

Ushbu dori vositalaridan _____ maqsadlarida
foydalaniladi.
* *giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan laboratoriyaning ijobiy xulosasi olingandan
so'ng foydalanilishiga ruxsat etiladi.*

_____ Markaz direktori
20 ____ y. “ ____ ” _____

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 2-iyuldagi 359-son qaroriga
2-ИЛОБАGiyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni O'zbekiston Respublikasi
hududi orqali tranzit tarzida o'tkazishga ruxsatnoma olish tartibi to'g'risida
NIZOM

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini hisobga olgan holda belgilangan davlat nazorati chora-tadbirlariga muvofiq giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni (keyingi o'rinlarda — giyohvandlik vositalari) O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o'tkazish uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni (keyingi o'rinlarda — ruxsatnoma) berish tartibini bel-

gilaydi.

2. Giyohvandlik vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o'tkazish uchun ruxsatnomani (keyingi o'rinlarda — tranzit ruxsatnomasi) rasmiylashtirish uchun “Litsenziya” axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — “Litsenziya” AT) orqali ariza beriladi, ariza O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati (keyingi o'rinlarda — DXX) hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (keyingi o'rinlarda — IIV)

bilan kelishilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligining (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tegishli qaroriga asosan mazkur Nizomga 1-ildovadagi sxemaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasi (keyingi o'rinlarda — Markaz) tomonidan beriladi.

3. Yuridik shaxslar (keyingi o'rinlarda — ariza beruvchi) tomonidan giyohvan-

dlik vositalari O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida mazkur Nizomga 2-ildovaga muvofiq shakldagi qat'iy hisobda turuvchi, pushti rangli maxsus blankda rasmiylashtirilgan holda bir nusxada beriladigan tranzitga ruxsatnoma mavjud bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

4. Tranzit ruxsatnomasidan faqat bir marta foydalaniladi va uning amal qilish muddati bir yilni tashkil etadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojx-

Давоми 15-бетда►

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR
MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

◀ Давоми. Боши 9,10,11,12,13 ва 14-бетларда

ona qo'mitasi giyohvandlik vositalarining tranzit tarzida o'tkazilgani to'g'risidagi ma'lumotni yuk chegaradan kesib o'tgan vaqtning o'zida onlayn vaqt rejimida Agentlik hamda Markazga taqdim etadi.

6. Giyohvandlik vositalarini tranziti import qiluvchi mamlakatning maxsus vakolatli organi tomonidan giyohvandlik vositalari muomalasi bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanish huquqi uchun berilgan tegishli hujjatga (ruxsatnoma, sertifikat, litsenziya va boshqalar) ega bo'lgan ariza beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

7. Tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan giyohvandlik vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o'tkazishda ularning o'z xususiyatini o'zgartiradigan har qanday jarayon sodir bo'lmasligi, qadoqlanishi esa vakolatli organlarning ruxsatisiz o'zgartirilishi mumkin emas.

8. Giyohvandlik vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o'tkazish bo'yicha ruxsatnoma olishda ariza beruvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan ruxsat etuvchi talab va shartlarga rioya qilishi shart.

**2-BOB. TRANZIT
RUXSATNOMASINI OLISH
UCHUN ZARUR HUJJATLAR**

9. Tranzit ruxsatnomani olish uchun ariza beruvchi tomonidan quyidagi hujjatlar Markazga taqdim etiladi:

a) mazkur Nizomga 3-ilovaga muvofiq tranzit ruxsatnomasini olish uchun ariza;

b) ariza beruvchining litsenziya yoki giyohvandlik vositalari muomalasi bilan shug'ullanish huquqi uchun boshqa ruxsatnomalari nusxasi;

v) giyohvandlik vositalarini yetkazib berish bo'yicha shartnoma nusxasi;

g) eksport va import qiluvchi mamlakatlarning maxsus vakolatli organlari tomonidan berilgan giyohvandlik vositalarining eksportiga (importiga) ruxsat beruvchi hujjati (sertifikat, ruxsatnoma, olib kirish, olib chiqish uchun litsenziya). Agar tranzit tarzida jo'natilayotgan giyohvandlik vositasi import qiluvchi/eksport qiluvchi mamlakatda nazoratga olinmagan bo'lsa, import qiluvchi/eksport qiluvchi mamlakatning vakolatli organi tomonidan rasmiy xat taqdim etiladi;

d) bojxona yuk deklaratsiyasining nusxasi.

10. Arizada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

a) ariza beruvchi — import qiluvchi tashkilot, yuk jo'natuvchi tashkilot va mamlakat nomi, yuridik manzili;

b) giyohvandlik vositasining TIF TN kodi, xalqaro patentlanmagan nomini ko'rsatgan holda dori shakli, dozasi, miqdori;

v) kontrakt (shartnoma) raqami va sanasi, eksport qiluvchi va yukni qabul qiluvchi tashkilot va mamlakat nomi hamda yuridik manzili;

g) eksport qiluvchi davlatdan olib chiqish va import qiluvchi davlatga olib kirish

punktlarini ko'rsatuvchi yo'nalish, transport turi;

d) yetkazib berish tartibi ko'rsatilgan holda mo'ljallangan tranzit muddati.

11. Ariza beruvchidan ushbu Nizomning 9-bandida nazarda tutilmagan hujjatlarni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

**3-BOB. TRANZIT
RUXSATNOMASINI OLISH
UCHUN ARIZA BERISH VA UNI
KO'RIB CHIQISH TARTIBI**

12. Ariza beruvchi tomonidan tranzit ruxsatnomasini olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar Markazga "Litsenziya" ATdagi shaxsiy kabinet orqali taqdim etiladi.

13. Markaz arizani yigirma ish kundan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqib, natijasi bo'yicha tranzit ruxsatnomasini beradi yoki berishni rad etadi.

14. Arizani ko'rib chiqish va ruxsatnoma rasmiylashtirish uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining sakkiz baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Yig'im to'langanligi axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali tasdiqlanadi.

Yig'im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi, agarda pasportlarning 6-bandida boshqacha taqsimot nazarda tutilmagan taqdirda:

10 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga;

0,5 foizi — Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko'rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga;

qolgan mablag'lar — Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish tizimini rivojlantirish respublika jamg'armasiga va Markazning tegishli bank hisobvaraqlariga teng miqdorda o'tkaziladi.

15. Markaz hujjatlar to'plamini o'rganadi va kelishish uchun "Litsenziya" AT orqali DXX hamda IIVga yuboradi.

16. DXX va IIV hujjatlarni o'ng ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqib, tegishli xulosasini Agentlikka yuboradi.

17. Agentlik hujjatlarni besh ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqib, tegishli qarorni Markazga taqdim etadi.

18. Agentlik qarori asosida Markaz ariza beruvchiga besh ish kunidan kechiktirmagan holda ruxsatnoma berilishi to'g'risida yoki DXX va IIVning (rad etilgan holatda) tegishli xulosalari asosida rad etish asoslari va qonunchilikning aniq normalarini ko'rsatgan holda ariza beruvchiga "Litsenziya" AT orqali xabarnoma yuboradi.

Markaz ruxsatnomani an'anaviy tarzda ariza beruvchining o'ziga yoki pochta xizmati orqali ariza beruvchi ko'rsatgan manzilga yuboradi.

Ariza qabul qilingandan so'ng ariza beruvchi ruxsatnoma olishdan bosh tortgan hollarda, to'langan to'lov summasi qaytarilmaydi.

19. Rasmiylashtirilgan ruxsatnomalar va ulardagi ma'lumotlar "Yagona darcha"

bojxona axborot tizimiga Markaz mas'ul shaxslari tomonidan kiritiladi.

20. Tranzit ruxsatnomasini berish quyidagi sabablarga ko'ra rad etilishi mumkin:

a) ariza beruvchi tomonidan tranzit ruxsatnomasini berish uchun zarur bo'lgan hujjatlar to'liq taqdim etilmaganda;

b) ariza beruvchi tranzit ruxsatnomasini berish talablari va shartlariga mos kelmaganda;

v) o'rganish natijalariga ko'ra DXX yoki IIVning asoslantirilgan rad etish xulosasi yoki Agentlikning ruxsatnoma berish mumkin emasligi to'g'risidagi qarori taqdim etilganda;

g) ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda aniq bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lganda.

Tranzit ruxsatnomasini berishning boshqa asoslariga ko'ra, shu jumladan, maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

21. Tranzit ruxsatnomasini berish rad etilgan taqdirda, to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

22. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun Markaz ariza beruvchiga malakali xodimlarni izlashda, hujjatlar hamda dasturlarni puxta ishlab chiqish uchun mutaxassislarni jalb etishda, shuningdek, boshqa muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda yordam ko'rsatishi va tavsiyalar berishi shart, ariza beruvchi taklif etilgan yordamni rad etgan hollar bundan mustasno.

23. Ariza beruvchi tomonidan tranzit ruxsatnomasini berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar bartaraf etilgan hollarda Markaz tomonidan ariza beruvchining arizasi kelib tushgan kundan e'tiboran besh ish kundan ortiq bo'lmagan muddatda qayta ko'rib chiqiladi.

24. Tranzit ruxsatnomasini berish to'g'risidagi arizani qayta ko'rib chiqishda, xabarnomada avval ko'rsatilmagan sabablarga ko'ra tranzit ruxsatnomasini berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Ariza qayta ko'rib chiqilgani uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig'im undiriladi hamda ushbu Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan tartibda taqsimlanadi.

25. Ariza beruvchi tranzit ruxsatnomasini berish rad etilgani, shuningdek, Markaz mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

**4-BOB. TRANZIT
RUXSATNOMASINING
DUBLIKATINI BERISH**

26. Tranzit ruxsatnomasi yo'qolganda yoki yaroqsiz holatga kelganda, ariza beruvchi "Litsenziya" AT orqali Markazga dublikat olish uchun ariza beradi.

Markaz arizani uch ish kunidan oshmagan muddatda ko'rib chiqib, "Dublikat" belgisi qo'yilgan yangi tranzit ruxsatnomasi an'anaviy tarzda yoki pochta xizmati orqali arizachiga taqdim etadi.

Tranzit ruxsatnomasining dublikati berilgani uchun bazaviy hisoblash miqdorin-

ing o'n foizi miqdorida yig'im undiriladi va undirilgan yig'im ushbu Nizomning 14-bandida belgilangan tartibda taqsimlanadi.

27. Tranzit ruxsatnomasi yaroqsiz holatga kelgan holda uning asl nusxasi ham taqdim etilishi kerak.

**5-BOB. BERILGAN TRANZIT
RUXSATNOMALARI REYESTRI**

28. Ruxsatnomalar reyestri "Litsenziya" ATda elektron shaklda har bir ruxsatnoma bo'yicha alohida yuritiladi va undagi ma'lumot barcha uchun ochiq hisoblanadi.

29. Ruxsatnomalar reyestri avtomatik ravishda shakllantiriladi, uning doimiy yuritilishi va unga tegishli o'zgartirishlarni kiritish Markaz tomonidan amalga oshiriladi.

Markaz ruxsatnomalar reyestrini yuritishda ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartiblarga rioya qilishi lozim.

30. Markaz quyidagi ma'lumotlarni ruxsatnomalar reyestriga o'z vaqtida kiritib borishga javobgar:

tranzit ruxsatnomasi berilgan sana va tartib raqami;

ariza beruvchining nomi va tashkiliy huquqiy shakli, yuridik manzili, telefon raqami;

ruxsatnomada tranzit tarzida o'tkazilayotgan giyohvandlik vositasining nomi va miqdori;

tranzit ruxsatnomasining amal qilish muddatini to'xtatib turish asosi va sanasi;

tranzit ruxsatnomasining amal qilish muddatini tugatish asosi va sanasi;

tranzit ruxsatnomasining bekor qilish asosi va sanasi;

tranzit ruxsatnomasining dublikatini berish asosi va sanasi;

tranzit ruxsatnomasining amal qilish muddati.

31. Ruxsatnoma egasi to'g'risidagi bat-afsil ma'lumotlar bazasi vakolatli organlar foydalanishi uchun shakllantiriladi va unda ruxsat berish jarayonida kiritiladigan barcha ma'lumotlar hamda ilova qilinadigan hujjatlarning elektron nusxalari saqlanadi.

Ushbu ma'lumotlar bazasida ruxsatnomalar reyestriga kiritilmagan axborotlar mavjud bo'lgan taqdirda, Markaz tomonidan mazkur axborotlar va ilova qilingan hujjatlarni boshqa shaxslarga oshkor qilinishi taqiqlanadi.

**6-BOB. YAKUNLOVCHI
QOIDALAR**

32. Tranzit ruxsatnomasining amal qilish muddatini to'xtatib turish yoki tugatish va bekor qilish O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan hollarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

33. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR
MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

←Давоми. Боши 9,10,11,12,13,14 ва 15-бетларда

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o‘tkazishga
ruxsatnoma olish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
1-ИЛОВА

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o‘tkazishga ruxsat berish
SXEMASI

Bosqic-hlar	Subyekt-lar	Tadbirlar	Ijro muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni (keyingi o‘rinlarda — giyohvandlik vositalari) O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o‘tkazishga ruxsatnoma olish uchun kerak bo‘ladigan hujjatlarni tayyorlaydi va “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasiga (keyingi o‘rinlarda — Markaz) “Litsenziya” AT orqali yuboradi.	Ariza beruvchining xohishiga ko‘ra
2-bosqich	Markaz	1. Markaz hujjatlar to‘plamini o‘rganadi, kelishish uchun “Litsenziya” AT orqali DXX hamda IIVga yuboradi. 2. DXX va IIV hujjatlarni ko‘rib chiqib, tegishli xulosasini Agentlikka yuboradi. 3. Agentlik hujjatlarni ko‘rib chiqib, tegishli qarorni Markazga taqdim etadi. 4. Agentlik qarori asosida Markaz ariza beruvchiga ruxsatnoma berilishi to‘g‘risida yoki DXX va IIVning (rad etilgan holatda) tegishli xulosalari asosida rad etish asoslari va qonunchilikning aniq normalarini ko‘rsatgan holda ariza beruvchiga “Litsenziya” AT orqali xabarnoma yuboradi. 5. Markaz ruxsatnomani an‘anaviy tarzda ariza beruvchining o‘ziga yoki pochta xizmati orqali ariza beruvchi ko‘rsatgan manzilga yuboradi.	1. Ariza va hujjatlar qabul qilingan kunda 2. Hujjat qabul qilingandan so‘ng o‘n ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda 3. Hujjat qabul qilingandan so‘ng besh ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda 4-5. Tegishli qaror olingandan so‘ng besh ish kundan ortiq bo‘lmagan muddatda
3-bosqich (zarur bo‘lganda)	Markaz	Ariza beruvchi tranzit ruxsatnomasini berishni rad etish uchun asos bo‘lgan sabablarni bartaraf etgan hollarda, hujjatlarni qayta ko‘rib chiqadi, tranzit ruxsatnomasini beradi yoki berishni rad etadi.	Ariza va hujjatlar qabul qilingandan so‘ng besh ish kundan ortiq bo‘lmagan muddatda

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o‘tkazishga
ruxsatnoma olish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ИЛОВА

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING
“FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGI MARKAZI” DAVLAT MUASSASASI

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o‘tkazishga
-SON RUXSATNOMA

“Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasi berilgan arizani ko‘rib chiqib, ga

(tashkilot nomi va uning manzili)

quyidagi miqdordagi

(giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar nomi)

(og‘irligi, hajmi, dori shakli, dozasi, qutilar soni)

tranzit qilinishiga ruxsat etadi.

Yukning yo‘nalishi, marshruti, transport turi:

Mazkur ruxsatnomaning amal qilish muddati 20 ____ y. “____” ____

Markaz direktori

Berilgan sana 20 ____ y. “____” ____

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o‘tkazishga
ruxsatnoma olish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
3-ИЛОВА

O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligining
“Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi”
davlat muassasasiga

Ushbu bilan ga,
(importyor qiluvchi tashkilot, yuk jo‘natuvchi va mamlakat nomi, yuridik manzili),

Sizdan
(giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning,
xalqaro patentlanmagan nomini ko‘rsatgan holda dori shakli, dozasi, miqdori),
(kontrakt (shartnoma) raqami va sanasi, yuk jo‘natuvchi,,
yuk yetkazib beruvchi nomi, mamlakati, yuridik manzili),
asosida tranzit ruxsatnomasini olishga ruxsat berishingizni so‘raymiz.,

uchun

(foydalanish maqsadi),
(yo‘nalish, transport turi, eksport qiluvchi mamlakatdan import qiluvchi mamlakatga,
chiqish-kirish nuqtalarini ko‘rsatgan marshruti bilan),
(mo‘ljallangan olib kirish, olib chiqish muddati),
(yetkazib berish tartibi (bir partiyada)),
,
Mas‘ul shaxs F.I.O. va imzosi,
M.O‘.,
Izoh. Ariza rasmiy blankda rasmiylashtiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 2-iyuldagi 359-son qaroriga
3-ИЛОВА

O‘zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari va psixotrop
moddalarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash tartibi to‘g‘risida
NIZOM

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash tartibini belgilaydi.

2. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq hisoblab chiqiladigan aholining har 1 000 kishisiga giyo-hvandlik vositalariga bo‘lgan cheklangan bir yillik umumiy ehtiyoj;

Давоми 17-бетда▶

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR
MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

«Давоми. Боши 9,10,11,12,13,14,15 ва 16-бетларда

mazkur Nizomga 2-ilovaga muvofiq hisoblab chiqiladigan davolash-profilaktika muassasalari bo'yicha giyohvandlik vositalariga bo'lgan ehtiyoj;

mazkur Nizomga 3-ilovaga muvofiq hisoblab chiqiladigan ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyoj.

Shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ko'rsatmasiga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar muomalasi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi tegishli litsenziyaga ega yuridik shaxslar (keyingi o'rinlarda — litsenziat) tomonidan tibbiyotda foydalanish uchun mo'ljallangan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyojni hisoblash me'yorlari so'nggi uch yillik statistika ma'lumotlarini hisobga olgan holda, o'rtacha miqdorlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bunda aniqlangan ehtiyoj yuridik shaxs rahbarining qarori bilan yillik iste'molning o'rtacha miqdoridan 10 — 20 foizgacha oshirilishi mumkin.

3. Respublikaning barcha davolash-profilaktika muassasalari har yili tibbiyot maqsadlarida foydalaniladigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga keyingi yilga bo'lgan ehtiyojni hisoblab chiqadilar hamda o'z buyurtmanomalarini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan yig'ma ehtiyojni shakllantirish uchun hududiy sog'liqni saqlash organlari orqali Sog'liqni saqlash vazirligining "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi marka-

zi" davlat muassasasiga (keyingi o'rinlarda — Markaz) taqdim etadilar.

4. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyojda quyidagilar ko'rsatiladi:

a) yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (nomi, STIR raqami);

b) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning muomalasi bilan bog'liq faoliyat uchun yuridik shaxs litsenziyasining raqami va amal qilish muddati;

v) dori vositalari sifatida ro'yxatga olingan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning nomlari, ularning chiqarilishi shakli va miqdori (ampulalarda, flakonlarda, tabletkalarda, kapsulalarda va boshqalar);

g) ushbu Nizomga ilovalarga muvofiq giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyojning asoslangan hisob-kitoblari.

Kelgusi yil uchun berilayotgan ehtiyoj yuridik shaxs rahbari tomonidan imzolnadi, muhr bilan tasdiqlanadi (ERI bilan imzolangan hollar bundan mustasno) va hududiy sog'liqni saqlash organlariga har yili 1-iyundan kechiktirmay taqdim etiladi. Yuridik shaxsning rahbari taqdim etilgan ehtiyojlarning asosiligi va ishonchiligi uchun mas'ul hisoblanadi.

5. Litsenziatlarning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan foydalanishga bo'lgan ehtiyoji yoki qo'shimcha ehtiyoji davolash standartlarini hisobga olib, tibbiy yordam turiga va tibbiy tashkilot bo'limlarining yo'nalishiga bog'liq holda aniqlanadi.

Rahbar tomonidan tasdiqlangan ehtiyoj yoki qo'shimcha ehtiyoj miqdorlari asoslangan jadval ko'rinishidagi ma'lumotlar (qanday muo-

laja yoki amaliyotda ishlatilishi, yil davomida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan muolaja yoki amaliyotlar soni, davomiyligi va bitta muolaja yoki amaliyotga ishlatiladigan miqdori) bilan birga taqdim etiladi.

6. Markazga har yili 1-iyundan kechiktirmagan muddatda quyidagi ma'lumotlar ham kiritiladi:

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa vazirlik va idoralarning, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyoji;

ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim tashkilotlari va boshqa o'quv muassasalari, nazorat-tahlil laboratoriyalari, davolash-profilaktika muassasalari laboratoriyalarining ilmiy maqsadlar uchun giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyoji;

mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan psixotrop moddalar ro'yxati va ehtiyoji.

7. Tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyojlar Markaz tomonidan umumlashtiriladi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari bilan kelishilgan holda vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

8. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va olib chiqish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar quyidagi ma'lumotlarni Markazga taqdim etadilar (tarkibida

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bo'lgan dori vositalarini tayyorlash bilan shug'ullanadigan dorixonalar bundan mustasno):

a) yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (nomi, STIR);

b) litsenziyaning tartib raqami va amal qilish muddati;

v) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning nomlari, ularning chiqarilish shakli va miqdori (dori vositalari sifatida ro'yxatga olingan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning doza shakli ko'rsatilgan holda).

9. O'zbekiston Respublikasining aniqlangan ehtiyojlari Markaz tomonidan BMTning 1961-yilgi Giyohvandlik moddalari to'g'risidagi yagona konvensiyasi va 1971-yilgi Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiyasi talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi bilan kelishilgan holda, BMTning Xalqaro narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasiga tasdiqlash va kvota ajratish uchun yuboriladi.

BMTning Xalqaro narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi uchun giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan kvota tasdiqlangandan keyin giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar muomalasi bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanish litsenziyasiga ega bo'lgan yetkazib beruvchilar bilan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash tartibi
to'g'risidagi nizomga
1-ИЛОБА

Tibbiy va ilmiy maqsadlar uchun giyohvandlik vositalari
sarfining cheklangan ruxsat berilgan normalari*
(aholining har 1 000 kishisiga bir yilda grammlarda)

1.	Morfin	0,5
2.	Trimeperidin	5,0
3.	Kodein + Morfin + Noskapin + Papaverin + Tebain	0,1
4.	Buprenorfin, Buprenorfin + Nalokson	0,13
5.	Kodein	70,3
6.	Fentanil	0,04

Izoh:

* Mazkur normalarga yangi turdagi giyohvandlik vositalari Sog'liqni saqlash vazirligi bosh mutaxassislarining tavsiyasiga binoan qonunchilikda belgilangan tartibda kiritiladi.

Barcha dori turlarining sof ta'sir qiluvchi moddasiga qayta hisoblash yo'li bilan me'yorlari belgilangan, shu bilan bog'liq holda normativ bo'yicha hisoblab chiqilgan ehtiyoj bilan buyurtmanomalarni taqqoslashda mazkur moddalar saqlovchi barcha dori turlari sof moddaga nisbatan qayta hisoblanishi kerak.

Violyatning giyohvandlik vositalariga hisoblab chiqilgan ehtiyoji quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

P = N * Ch / 100, bunda:

P — ushbu dori vositasining bir yilga mo'ljallangan maksimal ruxsat etilgan miqdori;

N — ushbu dori vositasining bir yilga 1 000 kishiga mo'ljallangan iste'mol normativi;

Ch — mintaqaning aholi soni.

O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash tartibi
to'g'risidagi nizomga
2-ИЛОБА

Davolash-profilaktika muassasalari uchun giyohvandlik vositalariga bo'lgan ehtiyoj me'yorlari

T/r	Boʻlim nomi	Giyohvandlik vositalari nomi														
		Morfin gidroxlorid 1%-1,0	Omnopon 1%-1,0	Omnopon 2%-1,0	Promedol 1%-1,0	Promedol 2%-1,0	Quruq morfinsimon preparatlar yigʻindisi	Fentanil 0,005 %-2,0	Promedol kukuni	Promedol tabletkasi	Etilmorfin gidroxlorid (sof modda)	Kodein, uning tuzlari	Tarkibida yoʻtalga qarshi kodein bor boʻlgan tabletkalar	Buprenorfin 0,3 mg	Buprenorfin 0,6 mg	Fortral (Pentazo-sin)
Oʻlchov birligi		Amp.	Amp.	Amp.	Amp.	Amp.	Amp.	Amp.	Gr.	Qad.	Gr.	Gr.	Qad.	Amp.	Amp.	Amp.
1.	Terapevtik	3,0	0,5	2,0	0,5	5,0	11,0	0,4	0,25	1,5	0,5	0,2	5,0	—	—	0,5
2.	Gastroenterologik	3,0	—	0,5	0,5	5,5	9,5	1,0	—	0,5	-	—	2,0	—	—	0,5
3.	Kardiologik	1,0	0,5	1,5	0,5	5,5	9,0	1,5	—	1,0	2,0	—	1,0	—	—	0,5
4.	Pulmonologik	1,0	1,0	2,0	1,0	6,0	11,0	0,5	—	—	0,06	0,2	4,0	—	—	1,0
5.	Allergologik	—	—	—	—	1,0	1,0	—	—	—	-	—	1,0	—	—	—
6.	Endokrinologik	—	—	0,6	—	1,0	1,6	3,0	—	—	0,01	—	0,1	—	—	—
7.	Nefrologik	6,0	2,0	7,0	0,5	55,0	75,0	6,0	—	—	-	—	1,5	—	—	—
8.	Revmatologik	2,5	2,0	12,0	4,0	36,0	56,5	5,0	—	0,5	0,3	—	1,5	—	—	4,0
9.	Profpatologik	1,0	1,0	2,0	0,5	6,0	10,5	—	—	—	0,06	0,2	3,0	—	—	0,05
10.	Jarohlik	6,0	1,5	8,5	7,0	58,0	81,0	6,0	0,4	10,0	0,4	0,3	6,0	3,0	3,0	7,0
11.	Travmatologik	8,0	1,0	4,0	10,0	100,0	—	10,0	—	—	0,5	—	2,0	—	—	2,0

Давоми 18 - бетда►

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR
MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

←Давоми. Боши 9,10,11,12,13,14,15,16 ва 17-бетларда

12.	Ortopedik	—	—	0,2	1,0	4,0	5,2	—	—	—	-	—	—	—	—	1,0
13.	Urologik	5,0	0,5	5,0	4,0	31,0	45,5	7,0	0,3	—	0,07	0,2	3,0	—	—	4,0
14.	Torakal jarrohlik	2,0	—	5,0	20,0	150,0	177,5	5,0	—	—	-	—	5,0	—	—	20,0
15.	Kuyganlik (Kombustsiologik)	11,0	2,0	10,0	10,0	100,0	—	15,0	—	—	0,3	—	2,0	—	—	3,0
16.	Reanimatsion	9,0	1,0	10,0	20,0	145,0	185,0	100,0	—	—	-	—	—	—	—	20,0
17.	Infeksion	2,0	3,0	2,0	31,0	5,0	43,0	0,2	—	1,0	0,3	—	7,5	—	—	31,0
18.	Homilador va tuqqan ayollar uchun	4,0	0,5	1,0	6,0	4,0	15,5	1,0	—	1,0	0,25	—	1,0	—	—	6,0
19.	Homiladorlik patologiyalari	—	—	—	—	0,5	0,5	—	—	—	-	—	0,1	—	—	—
20.	Ginekologik	3,0	2,5	9,0	2,5	14,0	31,0	4,0	—	7,0	0,05	—	1,5	—	—	2,5
21.	Nevrologik	0,5	—	0,5	2,0	1,0	4,0	0,6	0,3	—	-	0,6	1,5	—	—	2,0
22.	Psixiatrik	—	—	—	—	—	—	—	—	—	-	—	—	—	—	—
23.	Oftalmologik	0,3	0,5	0,5	0,5	4,0	5,8	1,0	0,3	—	0,7	—	1,5	—	—	0,5
24.	Otolaringologik	2,0	—	6,0	0,5	3,5	12,0	0,6	0,3	—	1,3	—	2,5	—	—	0,5
25.	Dermovenerologik	—	—	—	—	0,1	0,1	—	—	—	0,1	—	4,0	—	—	—
26.	Sil	2,0	—	1,5	1,0	2,0	6,5	—	0,1	1,2	0,35	—	4,0	—	—	1,0
27.	Pediatriya	0,2	0,1	—	0,3	—	0,6	—	—	1,2	0,05	1,0	1,0	—	—	0,3
28.	Onkologik	1,1	—	1,1	—	15,75	—	35,86	—	—	0,4	—	—	—	—	—
29.	Narkologik	—	—	—	—	—	—	—	—	—	-	—	—	—	—	—
30.	Gematologik	1,3	1,1	6,1	2,0	18,0	-	2,50	—	0,3	0,3	0,2	-	—	—	—
31.	Radiorentgenologik	0,5	2,5	12,0	3,0	7,0	25,0	1,0	—	0,1	-	—	—	—	—	3,0
32.	Qabul bo'limi	—	—	0,1	—	0,25	0,35	—	—	—	-	—	0,45	—	—	—
33.	Qishloq hududiy kasalxonasi, shu jumladan, ambulatoriyalarda	10,0	1,0	6,0	2,0	7,0	26,0	20,0	0,2	0,2	0,2	0,5	6,0	—	—	2,0
Yiliga 1 000 ta qabul uchun																
34.	Poliklinikalarda va ambulatoriyalarda	2,0	0,7	0,3	1,0	2,0	6,0	—	—	0,5	0,2	—	2,0	—	—	1,0
35.	Stomatologik poliklinikalarda	—	0,2	0,3	0,3/0,3	-/0,5	0,35/	-/1,0	—	—	-	—	—	—	—	0,3/0,3
36.	Onkologik dispanserda	140,0	—	—	55,0	80,0	275,0	—	—	—	-	—	—	—	—	55,0
37.	Sil kasalligi dispanserida	—	—	1,0	0,5	1,0	2,5	—	—	—	-	—	3,5	—	—	0,5
38.	Tez tibbiy yordam ko'rsatilgan holat uchun	14,0	—	7,0	—	39,0	60,0	2,5	—	1,5	-	—	—	—	—	—

Izoh.
Sog'liqni saqlash vazirligi davolash-profilaktika muassasalarini giyohvandlik vosita-
larining iste'mol me'yorlarini o'zgartirishi va belgilangan tartibda tasdiqlashi mumkin.
Umumiy og'riqsizlantirish bilan operatsiya qilinadigan bitta bemorga davolash stan-
darti asosida fentanil 0,005%ning sarflanadigan me'yori — 18 ampula doirasida, kar-
diojarrohlik amaliyotlari, jumladan, aorto-koronar shuntlash, mitral-ortal klapanlarni
protezlash, almashtirish, yurak bo'lmalari orasidagi to'siqlar nuqsonlarining plastikasi
jarrohlik amaliyotlarida — 40 ampula doirasida.
Jadvaldagi me'yorlar bir yilda bir dona koyka uchun sarflanadigan miqdorini ko'rsa-
tadi.

O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash tartibi
to'g'risidagi nizomga
3-ИЛЮБА

Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyoj me'yorlari

T/r	Giyohvan- dlik vositalari, psixotrop moddalar- ning farmako- terapevtik guruhi	Nomi	Hayvon turi va uning og'irligi	Foydalanish maqsadi (narkoz, bog'liqlik, stereotipiya, tirishish, sedatsiya, shartli reflekslar va boshqalar)	Bitta hayvonga yuborish usuli, dozasi (v/b, qorin ichiga, v/v, p/o, v/a)	Tajriba turi				Sichqonlar (18 — 24 g)	Analgezimetriya	0,03 — 0,2 mg/kg,	O'tkir — 20 ta sichqon
1.	Psixos- timul- yatorlar	Kokain	Kalamushlar (180 — 300 g) Sichqonlar (18 — 22 g)	Stereotipiya Stimulyatsiya	1 — 10 mg/ kg p/k	O'tkir — 8 — 10 ta hayvon				Kalamushlar (180 — 400 g)	Analgezimetriya	0,06 — 0,1 mg/kg	O'tkir — 20 ta kalamush
			Quyvonlar (2,5 — 3,5 kg)	Analgezimetriya	0,02 — 01,1 mg/kg,	O'tkir — 12 ta quyon				Quyvonlar (2,5 — 3,5 kg)	Analgezimetriya	0,02 — 01,1 mg/kg,	O'tkir — 12 ta quyon
2.	Narkotik analgetiklar	Prom- edol	Sichqonlar (18 — 24 g) Kalamushlar (180 — 400 g) Quyvonlar (2,5 — 3,5 kg) Itlar (10 — 20 kg)	Analgezimetriya Analgezimetriya Analgezimetriya Premedikatsiya uchun	4 — 13 mg/kg, v/b p/k, 2 — 4 mg/kg, v/b p/k, 8 mg/kg, p/k 20 — 40 mg, v/v, p/k bir hayvon uchun	O'tkir — 20 ta sichqon O'tkir — 20 ta kalamush O'tkir — 12 ta quyon				Kalamushlar (300 — 550 g)	Fentanil eritmasini iste'mol qilishda jismoniy qaramlik yuzaga kelishi Fentanilga tolerantlikning rivojlanishi	o'rtacha bir sutkada 40 ml 0,0004% har bir hayvonga 0,2 mg/kg, — p/k 10 kun mobaynida 0,15 mg/kg, v/b	Surunakali (12 oy) 100 ta kalamush 10 kun, 20 kalamush
										Kalamushlar (300 — 550 g)	Fentanilga tolerantlikning rivojlanishi Analgezimetriya	0,5 — 2 ml 0,005% li eritma 0,05 — 0,1 mg (1-2 ml 0,005% eritma)	5 — 7 kun 20 ta sichqon
										Sichqonlar (22 — 26 g) Itlar (10 — 20 kg)	Neyrole- ptanalgeziya: fentanil Droperidol	2,5 — 5 mg (1-2 ml 0,25% eritma)	
3.	Narkotik analget- iklar	Fen- tanil											

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
QARORI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR
MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

◀*Давоми. Боши 9,10,11,12,13,14,15,16,17ва 18-бетларда*

4.	Trankvili- zatorlar	Nitra- zepam	Sichqonlar (18 — 22 g)	Bog‘liqlik (tolerantlik)	10 mg/kg, v/b	Surunkali 3 oy, har kuni 20 ta sichqon
			Kalamush (180 — 300 g)	Harakat mexanizmi	10 mg/kg, v/b	Surunkali 10 kun, har kuni 20ta kalamush
			Quyونlar (2,5 — 3,5 kg)	EEG tadqiqoti	10 mg/kg, v/b	Surunkali 1 oy, har kuni 20 ta quyon
5.	Trank- viliza- torlar	Seduk- sen	Sichqonlar, kalamushlar	Bog‘liqlik (tolerantlik)	10 mg/kg, v/b	Surunkali 3 oy, har kuni 20 ta kalamush
			Kalamushlar	Harakat mexanizmi	10 mg/kg, v/b	Surunkali 10 kun, har kuni 20 ta kalamush
			Quyонlar (2,5 — 3,5 kg)	EEG tadqiqoti	10 mg/kg, v/b	Surunkali 1 oy, har kuni 20 ta quyon
6.	Trankviliza- torlar	Xlor- diaze- pok-sid	Sichqonlar, kalamushlar	Bog‘liklik (tolerantlik)	15 mg/kg, v/b	Surunkali 3 oy, har kuni 20 ta hayvon
			Kalamushlar	Harakat mexanizmi	15 mg/kg, v/b	Surunkali 10 kun, har kuni 20 ta kalamush
			Quyонlar	EEG tadqiqoti	15 mg/kg, v/b	Surunkali 1 oy, har kuni 20 ta quyon
7.	Uxlatish uchun	Nem- butal	Kalamushlar (180 — 300 g)	Narkoz	50 mg/kg	O‘tkir 10 ta kalamush
			Quyонlar (2,5 — 3,5 kg)	Narkoz	50 mg/kg	O‘tkir 3 ta quyon

8.		Gek- senal	Sichqonlar (18 — 22 g)	Giyohvandlik samarasi	70 mg/kg, v/b	O‘tkir 10-30 ta sichqon
9.	Uxlatish uchun	Feno- bar- bital	Sichqonlar (18 — 22 g)	Harakat mexanizmi	20 mg/kg, v/b	Surunkali 2 oy, har kuni 30 ta sichqon
			Kalamushlar (180 — 300 g)	Harakat mexanizmi	20 mg/kg, v/b	Surunkali 2 oy, har kuni 10 ta kalamush
10.	Psixo- stimul- yatorlar	Fena- min	Sichqonlar (18 — 22 g)	Stereotipiya Gipertermiya	8 mg/kg, v/b 10 mg/kg, v/b	Surunkali 3 oy, har kuni 30 ta sichqon
			Kalamushlar (180 — 300 g)	Stereotipiya Gipertermiya	8 mg/kg, v/b 10 mg/kg, v/b	Surunkali 3 oy, har kuni 20 ta kalamush
			Kalamushlar Sichqonlar	Stimulyatsiya Stereotipiya	3 — 8 mg/kg, v/b	O‘tkir 10 ta hayvon
11.	Narkotik analgetiklar	Morfin	Sichqonlar (18 — 24 g)	Analgezimetriya	3 — 18 mg/kg, v/b	O‘tkir, 20 ta sichqon
			Kalamushlar (180 — 400 g)	Analgezimetriya	6 — 10 mg/kg, v/b	O‘tkir, 20 ta kalamush
			Quyонlar (2,5 — 3,5 kg)	Analgezimetriya	1,5 — 10 mg/kg, v/b	O‘tkir, 12 ta quyon
			Kalamushlar (300 — 550 g)		o‘rtacha: 30 ml, sutkasiga bir kalamushga 0,038%	Surunkali 12 oy, 100 ta kalamush
			Kalamushlar (300 — 550 g)	Morfinga tolerantlikning rivojlanishi	20 mg/kg, p/k 10 kun mobaynida	10 kun, 20 ta kalamush
			Sichqonlar (26 g)	Morfinga tolerantlikning rivojlanishi	15 mg/kg, v/b,	5-7 kun, 20 ta sichqon

Izoh.
Sog‘liqni saqlash vazirligi ilmiy-tadqiqot muassasalarini giyohvandlik vositalari va

psixotrop moddalarning iste‘mol me‘yorlarini o‘zgartirishi va belgilangan tartibda tasdiqlashi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 2-iyuldagi 359-son qaroriga
4-ИЛОВА

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni yo‘q qilish tartibi to‘g‘risida
NIZOM

1. Mazkur Nizom giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni yo‘q qilish tartibini belgilaydi.

2. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar quyidagi holatlarda yo‘q qilinadi: ularning yaroqlilik muddati tugaganda; giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ulardan foydalanish imkoniyatini istisno etuvchi kimyoviy yoki fizik ta’sirga uchraganda yoki qayta foydalanish imkoniyati bo‘lmaganda (shu jumladan, ochilgan ampulalardagi (flakonlarda) to‘liq foydalanilmagan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qoldiqlari);

bemorlar vafotidan so‘ng ularning qarindoshlaridan foydalanilmay qolgan vosita yoki modda tariqasida qabul qilinganda;

ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga mansubligini aniqlashning imkoni bo‘lmaganda.

3. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni yo‘q qilish yuridik shaxslar tomonidan ularda faoliyatning ko‘rsatib o‘tilgan turiga litsenziya mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Litsenziatning faoliyati tugatilgan yoki litsenziyasining amal qilish muddati tugagan hollarda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qoldiqlari Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi davolash-profilaktika muassasasiga beriladi. Bunda litsenziat litsenziyalanadigan faoliyatning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni berish bo‘yicha kichik turiga ega bo‘lishi shart. Agarda litsenziyat ushbu faoliyat turiga ega bo‘lmasa, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar mazkur Nizomning 5-bandiga muvofiq yo‘q qilinadi.

4. Onkologik bemorlar uyida vafot etgandan keyin qolgan giyohvandlik vositalaridan noto‘g‘ri foydalanishning oldini olish maqsadida davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari qarindoshlar tomonidan topshirilgan foyda-

lanilmagan retseptlar, giyohvandlik vositalari qoldiqlari va foydalanilgan giyohvandlik vositalarining bo‘sh ampulalari hisobi yuritilishini tashkil etishlari zarur.

Davolash-profilaktika muassasasi bo‘yicha buyruq bilan hisobni yuritish va yo‘q qilish uchun mas‘ul bo‘lgan shaxsga o‘lim to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani rasmiylashtirish, vafot etgan onkologik kasalliklar bilan og‘rigan bemorning qarindoshlaridan foydalanilmagan retseptlarni, tarkibida giyohvandlik vositalar bo‘lgan dori-darmon preparatlari qoldiqlarini, bo‘sh ampulalarni qabul qilishni tashkil etish vazifasi yuklanadi. Mazkur xodim ambulatoriya kartasiga yozilgan navbatdagi retsept olingan paytdan boshlab preparat sarfini taqqoslashi zarur.

Topshirilgan retseptlar va preparatlar soni, ularning nomlari va dori vositalari shakli (ampula, tabletka, kukun) tartib raqami qo‘yilgan, ip o‘tkazib tikilgan, muassasa rahbari tomonidan imzolangan va dumaloq muhr bilan tasdiqlangan maxsus jurnalda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Jurnal mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Topshirilgan retseptlar va dori vositalari yo‘q qilingunga qadar seyfda yoki metall shkaf-larda saqlanishi kerak.

Giyohvandlik vositalarini ambulator bemorlarga foydalanishni hisobini yuritish jurnalida vafot etgan onkologik kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarning qarindoshlari tomonidan topshirilgan, yo‘q qilingan, foydalanilmagan giyohvandlik vositalari va retseptlar, shuningdek, bo‘sh ampulalar soni to‘g‘risida belgi qo‘yiladi.

Uyda vafot etgan onkologik kasalliklar bilan og‘rigan bemorning qarindoshlari tomonidan topshirilgan kukun, tabletka, ampulalardagi giyohvandlik vositalari va foydalanilmagan retseptlar jamlanishi davomida mas‘ul shaxs ularni hisobdan chiqarishga tayyorlaydi. Yo‘q

qilish har oyning o‘ttizinchi sanasidan kechikmay, davolash-profilaktika muassasasida rahbar buyrug‘i bilan doimiy faoliyat yuritadigan komissiyasi va hududiy ichki ishlar organi vakilining ishtirokida mazkur Nizomga 2 va 3-ilovalarga muvofiq dalolatnoma tuzilgan holda bir marta o‘tkaziladi.

